

**YURIDIK SHAXSLAR VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BANK  
HISOBVARAQLARINI OCHISH VA ULARGA MASOFADAN TURIB (DISTANTSION)  
ELEKTRON BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA  
OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga AT "Aloqabank"da bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi mazkur ommaviy oferta shartnomasi (keyingi o'rinlarda "Shartnoma), AT "Aloqabank" (keyingi o'rinlarda "Bank") ning rasmiy saytida [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) e'lon qilingan, ommaviy oferta, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 364 va 367-moddalariga muvofiq Shartnoma tuzish uchun noma'lum doiradagi yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga Bankning taklifi hisoblanadi.

Shartnoma Bankda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga Shartnoma hamda unga ilovalarda keltirilgan qoidalar hamda tartibda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq kompleks bank xizmatlarini taqdim etish tartibini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 369 va 370-moddalariga muvofiq Mijoz Bankka Shartnomaning ilovalariga asosan ariza taqdim etgan paytdan boshlab Bank va Mijoz o'rtasida Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi. Shartnoma aksept qilingan paytdan, boshlab Bankka Shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan shaklga ko'ra lozim darajada to'ldirilgan va imzolangan ariza, shuningdek Bank lozim darajada tekshiruv amalga oshirish uchun hujjatlar taqdim etganligi tan olinadi. Mijozning Ariza taqdim etishi, Mijoz Shartnoma, Shartnomaga ilovalar hamda Bankning Internetda [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) manzili bo'yicha rasmiy saytida joylangan Bank Tariflarini o'qib, tanishib chiqqanligi va shartsiz roziligini anglatadi.

Shartnoma hamda ilovalar bo'yicha ariza va barcha zarur hujjatlar Mijozning vakolatli shaxsi (shaxslari) tomonidan Bankka taqdim etiladi.

## **I.TUSHUNCHALAR**

**API**-(Application Programming Interface) - ichki va tashqi tizimlar o'rtasida o'zaro amallar bajarish va integratsiya qilish usullari, protokollari, uskunalari, dasturiy modullari (shu jumladan kod bazasi).

**Autentifikatsiya ma'lumotlari** - foydalanish kodlari, Mijozning noyob login (login) va paroli (password), shu jumladan Internet-Bank orqali Karta, Mobil Bank va/yoki Internet tarmog'ida boshqa xizmat ko'rsatish kanallari, shuningdek uyali aloqa kanallaridan foydalanib foydalanish hamda amallarni bajarish uchun foydalaniladigan boshqa ma'lumotlar

**Bank** – Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank” 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Tepamasjid ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil 9-iyuldan 48-son litsenziyasi.

**Mijoz**- Yuridik shaxslar va tadbirkorlik subyektlari.

**Naf oluvchi** - yakuniy natijada mulk huquqiga egalik qiluvchi yoki mijozni haqiqatda nazorat qiluvchi va manfaatini ko'zlagan holda pul mablag'lari yoki boshqa mulk ustida operatsiyalar amalga oshirilayotgan shaxs.

**Mijozning benefitsiar mulkdori** - mijozni mulk va boshqaruv tuzilmasining o'ziga xosliklariga muvofiq qonunchilikda aniqlangan (nizom va (yoki) ta'sis shartnoma, qoidalar) ta'sis hujjatlari asosida nazorat qiluvchi shaxs;

**Bank Tariflari** – bank tomonidan xizmat ko'rsatish vaqtida amalda bo'lgan va bank tomonidan tasdiqlangan komission to'lovlar tarifi

**Hisobvaraqlar** — Mijoz nomiga ochilgan barcha hisobvaraqlar (hisobraqamlar), xususan: talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli, ssuda va boshqa depozit hisobvaraqlarini qamrab oladi.

**To'lov hujjatlari** — hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunchilikda belgilangan hisob-kitob hujjatlari va Mijozning topshirig'i ifodalangan boshqa hujjatlar (arizalar). Hisob-kitob hujjatlari va to'lov hujjatlari bir xil mazmunda ishlatiladi.

**Masofaviy bank xizmatlari** – “Internet-bank”, “Mobil-bank” va “SMS-bank” tizimidan foydalanish xizmat turlari.

**“Internet-bank” xizmati** – avtomatlashtirilgan elektron tizim bo'lib, mijozga internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda uning bankdagi hisobvarag'iga masofadan turib xizmat ko'rsatish imkonini beruvchi xizmat turi hisoblanadi.

**“Mobil-bank” xizmati («Aloqa Business» ilovasi)** – avtomatlashtirilgan elektron tizim bo'lib, mijozga internet axborot- telekommunikatsiya tarmog'i orqali “IOS”, “Android”, yoki “JAVA” operatsion tizimlarida ishlaydigan mobil telefoni yoki planshetidan foydalangan holda bankdagi hisobvarag'iga masofadan turib xizmat ko'rsatish imkonini beruvchi xizmat turi hisoblanadi. “Aloqa Business” nomli mobil qurilmalar uchun dastur bo'lib, mutlaq huquqi Bank tomonidan yaratilgani sababli Bankka tegishlidir.

**Foydalanuvchi** - litsenziya egasi, yuridik shaxs (Bank mijoz), direktor (rahbar), buxgalter (ikkinchi imzo huquqiga ega bo'lgan shaxs) yoki tegishli tartibda Bankda ochilgan joriy hisobvarag'idan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan vakillik huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs (Bank mijoz). Bank ilovasini o'z qurilmasiga o'rnatgan shaxs.

**Qurilma** - Bank ilovasi o'rnatilgan va Internetga kirish imkoniga ega mobil texnik qurilma (smartfon, planshet yoki boshqa qurilma).

**Litsenziya** - Bank ilovasidan foydalanish uchun oddiy (eksklyuziv bo'lmagan), o'tkazilmaydigan, qaytarib olinadigan, bepul litsenziya.

**“SMS-bank” xizmati** – avtomatlashtirilgan elektron tizim bo'lib, mijozga uyali aloqa operatorlari xizmatidan foydalangan holda mobil telefoni yoki planshetiga hisobvarag'idagi amaliyotlar haqida ma'lumotlarni SMS ko'rinishida taqdim etib turuvchi xizmat turi hisoblanadi.

**Axborot tizimi** - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

**Elektron hujjat** - Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir.

**Elektron raqamli imzo (ERI)** – bu Mijoz tomonidan kriptografik o'zgartirishlar yordamida shakllantirilgan axborot tizimida amalga oshirilgan va elektron hujjatga qat'iy ravishda taqqoslanadigan hamda elektron hujjatni autentifikatsiyalash (mualliflik va yaxlitlikni tasdiqlash) uchun foydalaniladigan, bayt yig'indisi ko'rinishidagi elektron hujjatning rekviziti.

**Mijozning ERI yopiq kaliti** - Mijoz tomonidan axborot tizimi vositalaridan foydalangan holda mustaqil ravishda hosil qilingan va Mijoz tomonidan elektron hujjatning elektron raqamli imzoni shakllantirish uchun mo'ljallangan kalit (baytlar ketma-ketligi).

**Mijozning ERI ochiq kaliti** - Mijozning ERI maxfiy kalitiga qat'iy holda bog'liq bo'lgan va Mijoz tomonidan Mijozning ERI maxfiy kaliti tayyorlanganida Shartnoma obyektidan avtomatik tarzda shakllantiriladigan hamda Mijoz tomonidan shakllantirilgan elektron hujjatning elektron raqamli imzosi to'g'riligini (mosligini) Bank tarafidan tekshirilishi uchun mo'ljallangan kalit (baytlar ketma-ketligi).

**Mijozning ERI ochiq kaliti sertifikat** –Rahbari imzosi bilan tasdiqlangan va Mijoz muhri bosilgan, ERI ochiq kalitining amal qilish muddatlari ko'rsatilgan hamda Mijozning ERI ochiq kaliti o'n olti xonali belgilar ketma-ketligi ko'rinishida taqdim etilgan qog'oz shakldagi hujjat.

**Kalitning o'z maqomini yo'qotishi** - foydalaniladigan kalitlar axborot xavfsizligini ta'minlayotganligiga ishonchning yo'qolishi.

**Imzo namunalari kartochkasi** - Mijoz tomonidan bank hisobvaraqa shartnomasiga muvofiq Bankka taqdim etiladigan Mijozning hisob-kitoblarini imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning imzo namunalari va muhri tushirilgan kartochka.

**Oferta** – ofertada ko'rsatilgan shartlar bo'yicha Bank hisobvaraqlarini ochish va ularga masofadan turib (distantion) elektron bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasini tuzish uchun Bank tomonidan tasdiqlanib, elektron shaklda nashr etilgan ommaviy taklif.

**Aksept** – Ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilinishi. Ofertani Akseptlash shartnoma tuzilganligini vujudga keltiradi va huquqiy ahamiyatga ega.

**Mijoz mobil telefonining ro'yxatga olingan raqami** – mijoz topshirig'iga ko'ra mobil ilovalardan foydalanish va Bankdan elektron xabarnoma olish uchun Bank bazasida ro'yxatga olingan hamda SMS-xabarnoma xizmati yoqilgan mobil telefon raqami.

**Shartnoma** – Ofertani akseptlash orqali Bank va mijoz o'rtasida masofadan turib hisobvaraqa ochish bo'yicha tuziladigan bitim.

**Masofadan bank hisobvarag'i ochish shartlari** – Bankning korporativ veb-saytida [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) manzil bo'yicha joylashtirilgan.

**Xabar berish uchun manzil** – Mijozning pochta yoki elektron manzili, yoxud telefon raqami.

**Xabarnoma** – shartnomada ko'zda tutilgan tartibda fakt, harakat yoki qarorlar to'g'risida bir tarafning ikkinchi tarafga yuborgan ixtiyoriy turdagi xabari.

**Ish kuni** – bankning qonun hujjatlariga muvofiq ishlashi mumkin bo'lgan kuni.

**Amaliyot kuni** – bu agar qonun hujjatlarida boshqacha belgilangan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi vaqti bilan soat 9-00 dan 17-00 gacha bo'lgan vaqt oralig'i.

## II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur shartnoma bank tomonidan mijozning arizasiga ko'ra amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq, bank hisobvaraqlarini (bundan buyon «hisobvaraqa» deb yuritiladi) ochish, uning hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning hisobvarag'idan tegishli pul mablag'larini o'tkazish va to'lash hamda hisobvaraqa bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish, kassa xizmatlarini ko'rsatish, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish, masofaviy xizmatlar dasturiy majmualari orqali elektron bank xizmatlarini ko'rsatish, korporativ (yoki tadbirkor) bank kartasi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblar bo'yicha Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. . Bank xizmatlarini ko'rsatish mazkur Shartnoma va uning ilovalarida belgilangan shartlar asosida amalga oshiriladi.

2.3. Shartnoma va uning ilovalari Bankning rasmiy saytida e'lon qilinadi. Mijoz Shartnoma va uning ilovalari shartlari, shu jumladan, o'zgarishlar/qo'shimchalar bilan tanishgan vaqt ma'lumot e'lon qilingan va/yoki xizmatni olgan vaqt hisoblanadi. Bank Shartnoma va uning ilovalari shartlari, shu jumladan, o'zgarishlar/qo'shimchalar hamda Bank tariflari bilan Mijozlar tanishishi uchun Bankning [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) manzili bo'yicha saytida e'lon qiladi.

2.4. Agar Shartnoma va uning ilovalarida boshqacha holat belgilanmagan bo'lsa, Shartnomaning aksepti Mijozga xizmat ko'rsatish uchun asos bo'ladi.

2.5. Mijozga:

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish 2-ilovaga asosan;
2. Yuridik shaxs ishchilarga oylik ish haqi loyihasi bo'yicha bank kartasi berish va korporativ bank kartasi chiqarish hamda to'lov terminallari berish 3-ilovaga asosan;
3. "Internet-banking" xizmatini ko'rsatish 4-ilovaga asosan
4. "Aloqa-business" ilovasi orqali xizmat ko'rsatish 5-ilovaga asosan amalga oshiriladi.

2.6. Arizani imzolab, Mijoz Shartnomaning tarkibi bilan roziligi va tanishganligi, xizmatlarni ko'rsatish shartlarini to'liq va shartsiz qabul qilinishiga roziligini tasdiqlaydi, shuningdek Shartnoma Mijoz uchun og'ir shartlarga ega emasligi faktini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Shartnomaga Arizani imzolab, Mijoz amaldagi qonunchilik va/yoki Mijozning ta'sis hujjatlariga muvofiq talab etiladigan davlat organlari hamda yuridik shaxsning boshqaruv organlarini barcha zarur roziliklari, ruxsati va/yoki tasdig'ini olganligini, shuningdek faoliyatini amalga oshirish va operatsiyalarni bajarish uchun mos keluvchi litsenziya va ruxsatnomalarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

2.7. Bank Mijozga xizmatlarni taqdim etish to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, Mijozni identifikatsiya qilish natijasida olingan, shu jumladan Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar asosida qabul qiladi.

2.8. Bank ichki qoidalarga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda, yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorga mazkur Shartnoma asosida bank xizmatlarini ko'rsatishdan bosh tortish huquqiga ega.

2.9. . Mazkur Shartnoma va uning ilovalarida boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, har bir bank xizmati uchun bank tomonidan rasmiy [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) saytda joylashtirilgan tegishli Bank tarif qo'llaniladi.

2.10. Agar Mijozning rekvizitlarni o'zgartirish yoki mijoz o'tkazmasini bekor qilish (qaytarish) to'g'risidagi topshirig'ini ijro etish bo'yicha Bank harakatlari Tariflarda bevosita ko'rsatilgan qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq bo'lmagan holatda, Mijoz Bankka bunday xarajatlarni qoplashi shart. Ushbu bilan, Mijoz shu xarajatlar summasini Mijozning hisobvarag'idan (hisobvaraqlaridan) oldindan berilgan akseptsiz tartibda yechish huquqini Bankka topshiradi.

### **III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

3.1. Shartnomaning ushbu qismida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlardan tashqari, Bank va Mijoz Shartnoma va uning ilovalarida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega.

3.2. Bankning majburiyatlari:

3.2.1. Mijoz bilan bog'liq har qanday ma'lumot uchun maxfiylikni saqlash. Shu bilan birga, bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda Mijoz bilan bog'liq ma'lumotlarni taqdim etishga haqlidir.

3.3. Mijozning majburiyatlari:

3.3.1. Bankka, shu jumladan Bankning so'rovi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur ishonchli ma'lumot va hujjatlarni, shu jumladan pul mablag'lari bilan bog'liq hujjatlar va operatsiyalar, ko'chirilgan pul mablag'lari asosli olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek Mijoz, naf oluvchi va/yoki ularni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslar munosabatida, shu jumladan xorijiy davlatlarning soliq rezidentlarini aniqlash uchun hujjat va ma'lumotlarni taqdim qilish;

3.3.2. Mijoz, Mijozning vakili, Naf oluvchi, Benefitsiar mulkdor haqidagi ma'lumotlar o'zgargan paytdan 1 (bir) bank ish kuni davomida bu haqida Bankka xabar berish, shuningdek Mijoz tomonidan Shartnoma tuzish hamda mijozni identifikatsiya qilish maqsadida taqdim qilingan ma'lumotlarga tegishli barcha o'zgarishlar haqida Bankni 3 (uch) bank ish kuni ichida yozma xabardor qilish hamda mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiylikini tasdiqlash lozim. Mazkur bandeda ko'rsatilgan, ma'lumotlarning ishonchililigini tekshirish bo'yicha Mijozdan xabarlar berilmagan holatda, shuningdek Shartnoma tuzilgan sanadan bir yil o'tib va har keyingi yilda xabar berilmasligi Mijozning Bankda mavjud ma'lumotlarning haqiqiylik va dolzarbligini tasdiqlashini anglatadi.

3.3.3. Mijoz bilan aloqa qilish uchun Bankka ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek Tomonlarning mazkur Shartnomani bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlarni, shu jumladan: o'zining nomi, yuridik manzili, haqiqiy manzili, internet saytining manzili, shuningdek rekvizitlarda boshqa o'zgarishlarni shunday o'zgarishlardan keyin 1 (bir) ish kuni davomida, yangilangan ma'lumotlarni taqdim etish. Bankning Mijozga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Shartnomada ko'zda tutilgan xabarlarni yo'naltirishi bo'yicha majburiyati Mijoz bilan bog'lanish uchun Bankda mavjud ma'lumotlarga muvofiq xabar yo'naltirilganda bajarilgan sanaladi.

3.3.4. Shartnoma shartlarini bajarish va Shartnomaga ilovalarda berilgan bank xizmatlariga tegishli ma'lumotlar bilan mustaqil tanishish. Bank elektron hujjatlar ko'rinishida umumiy foydalanish uchun joylashtirgan ma'lumotlar Bankning rasmiy [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) saytida e'lon qilingan sanadan Mijoz e'tiboriga lozim darajada taqdim

etilgan hisoblanadi.

Mijoz Shartnoma va uning ilovalarida keltirilgan bank xizmatlaridan foydalananda Bankning rasmiy [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) saytida joylangan xizmat ko'rsatish shartlari hamda Tariflar bilan mustaqil tanishib chiqish majburiyatini oladi.

3.3.5. Mijoz Ariza va boshqa hujjatlarda jismoniy shaxslar to'g'risida ma'lumotlarni ko'rsatgan vaqtda Shartnoma doirasida shaxsiy ma'lumotlarini Bankka taqdim etadigan shaxslar munosabatida O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun talablariga rioya qilishi lozim. Mijoz Shartnoma shartlarini bajarish, shuningdek Mijozga va/yoki ko'rsatilgan jismoniy shaxslarga Bankning boshqa mahsulot/xizmatlarini taqdim qilish maqsadida shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash huquqini Bankka topshiradi. Bunda Mijoz ko'rsatgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini Mijoz va Bank tomonidan qayta ishlanishiga shunday rozilik olish talablarini buzganlik oqibatlarini uchun, shu jumladan mulkiy xarakterda, shuningdek jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiqi haqida ma'lumot yetkazilganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.3.6. Shartnoma va uning ilovalarida ko'zda tutilgan bank xizmatlarini olish uchun olish zarur bo'lgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, foydalanish va saqlashga roziligini bekor qilish mazkur bandda ko'rsatilgan rozilik Tomonlarning Shartnoma shartlarini bajarishini qisman yoki to'liq imkonsiz qiladigan yoki qiyinlashtiradigan darajada bekor qilingan sanadan Bank tomonidan bir tomonlama tartibda Shartnomani bekor qilish uchun asos hisoblanadi.

Mazkur bandda keltirilgan asoslarga ko'ra Shartnoma bekor qilingan holatda Bankda ochilgan Mijozning hisobvarag'i Shartnoma bekor qilingan sanadan yopilishi lozim. Tomonlar Shartnoma mazkur bandda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha bekor qilinganda Tomonlarning qo'shimcha kelishuvi talab etilmasligiga roziliklarini bildirishadi.

3.3.7. Kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda Shartnoma doirasida Mijoz tomonidan Bankka taqdim qilingan hujjat yoki yangilangan ma'lumotlarni yangi tahririni, shu jumladan Mijozning hisobvarag'ini boshqarish huquqiga ega shaxslarga tegishli ma'lumotlarni bunday o'zgarishlar kiritilgan va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan 3 (uch) ish kuni ichida taqdim etish.

3.3.8. Autentifikatsiya ma'lumotlari hamda ERI ning xavfsiz saqlanishini ta'minlash, bunday ma'lumotlar va ERI ning maxfiylikini ta'minlash, xususan ulardan uchinchi shaxslar foydalanishiga yo'l qo'ymaslik, Autentifikatsiya ma'lumotlari, ERI dan foydalanish huquqiga ega bo'lishga qaratilgan harakatlarni oldini olishga yo'naltirilgan choralar ko'rish. Maxfiylik buzilganligi to'g'risida Bankka zudlik bilan yozma xabar berish.

Bank mijozdan maxfiylik buzilganligi to'g'risida xabar olgunga qadar Mijoz oldida uchinchi shaxslarning har qanday huquqbuzarliklari/firibgarlik harakatlari, bunday harakatlar natijasida Mijozga yetkazilgan bevosita va/yoki bilvosita zarar, shu jumladan, Bankning Autentifikatsiya ma'lumotlari, ERI dan noqonuniy foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan vakolatsiz shaxslarning Bankka yo'naltirilgan Mijozning hisobvarag'i (hisobvaraqlari) bo'yicha topshiriqlarni bajarganligi va Bank tomonidan bajarishga olingan operatsiyalari uchun Bank mijoz oldida javobgar emas.

3.3.9. Pul mablag'lari hamda boshqa mulk bilan qonunchilik va Bankda ko'zda tutilgan hajm va tartibda mustaqil ravishda xizmat ko'rsatishga qabul qilish yoki operatsiyani amalga oshirishdan oldin naf oluvchi, ya'ni Mijoz foydasi uchun harakat qilayotgan shaxs to'g'risida, shu jumladan agentlik shartnomasi, topshirish shartnomasi, komissiya hamda ishonchli boshqaruv asosida xabar berish.

3.3.10. Bankka naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning taqdim qilinmasligi Mijozning bunday ma'lumotga ega emasligini anglatadi. Benefitsiar mulkdor, ya'ni yakuniy natijada mulk huquqiga ega bo'luvchi yoki Mijozni nazorat qiluvchi va uning manfaatidan pul mablag'lari yoki boshqa mulk bilan operatsiya amalga oshirilayotgan shaxs haqida xabar berish.

3.3.11. Bank oldidagi qarzdorlikni (u mavjud bo'lsa) Shartnoma shartlari hamda Shartnomaga llovalarda keltirilgan alohida shartnoma shartlariga muvofiq ixtiyoriy ravishda to'lash.

3.3.12. Bankning talabiga ko'ra Mijozning Shartnoma va/yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan shart, qoida va talablarni bajarmasligi/buzganligi oqibatida Bankka yetkazilgan zararlarni qoplash.

3.3.13. Mijoz, Naf oluvchi va/yoki bevosita yoki bilvosita ularni nazorat qiluvchi shaxslarning soliq rezidenti holatiga ta'sir ko'rsatuvchi hujjatlar va ma'lumotlar va/yoki holatlar o'zgarishi to'g'risida Bankni 1 (bir) bank ish kuni ichida xabardor qilish, Bankka 15 (o'n besh) kalendar kunida zarur hujjat va ma'lumotlarni taqdim qilish.

#### **3.4. Bankning huquqlari:**

3.4.1. Mijoz, Mijozning vakili, Naf oluvchi, Benefitsiar mulkdorni identifikatsiyalash va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilashda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Shartnoma va uning ilovalarida ko'zda tutilgan hujjat va ma'lumotlarni Mijoz, Mijozning vakili tomonidan taqdim qilinishini talab qilishva olish.

3.4.2. Shartnoma tuzish va uning shartlarini bajarish uchun, shu jumladan uchinchi shaxslarni jalb qilish orqali Mijoz taqdim qilgan hujjat va ma'lumotlarni tekshirish. Ushbu bilan Mijoz unga nisbatan ma'lumotlarning uchinchi shaxslar, shu jumladan soliq organlari, statistika organlari, kredit idorasi va boshqalar tomonidan olinishiga roziligini bildiradi. Shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishga uchinchi shaxslarni jalb qilish.

3.4.3. Shartnoma tuzganda, shuningdek Mijozning Bankka boshqa ko'rinishda murojaat qilganida, bunday harakat haqida Mijozga (uning vakillari) ham xabar bergan, ham xabar bermagan holatda kuzatuv olib borish, suratga olish, audio- va videoyozuv yuritish, shu jumladan telefon suhbatlarini yozib olish. Bankning Mijoz bilan munosabatlari yakunlangan paytdan 5 (besh) yil davomida bunday yozuvlarni saqlash, shuningdek Shartnoma bilan bog'liq har qanday so'rovlar olib borishda ulardan foydalanish huquqiga Mijoz rozilik bildiradi.

3.4.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan holatlarda, shuningdek Shartnomaga llovalarda keltirilgan bank xizmatlarini ko'rsatishda Mijozdan hujjat va ma'lumotlarni, shu jumladan Mijoz, Benefitsiar mulkdor va Mijozni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslar, pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalar, Bank bilan ish munosabatlarini tuzishdan maqsad va bunday munosabatlarning kutilayotgan xarakteri, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining maqsadlari, moliyaviy holati, ish obro'si, pul mablag'lari va/yoki Mijozning boshqa mulkiy manbai to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlar va/yoki ko'chirilgan pul mablag'larini asosli olinishini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rash.

3.4.5. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan asoslarda, shuningdek mazkur Shartnoma va/yoki Bankning ichki hujjatlariga muvofiq har qanday shaxsning Arizasini ko'rib chiqishdan bosh tortish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.4.6. Mijozning hujjatlari taqdim etilmagan, shu jumladan mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida, shuningdek Bankning ichki hujjatlariga muvofiq hamda O'zbekiston

Respublikasining qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda operatsiyani amalga oshirish to'g'risidagi topshirig'ini bajarishdan bosh tortish.

3.4.7. Bank Mijozning global Internet tarmog'ida va boshqa qonuniy usulda, shu jumladan: taqdimotlarda, broshyuralarda, bukletlarda, varaqalarda Mijoz bank mijozi ekanligi haqidagi ma'lumotlarni tarqatish/joylashtirish orqali savdo belgilari/xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomi va Mijozning boshqa belgilaridan foydalanish huquqiga ega.

3.4.8. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Mijozdan Mijozni identifikatsiya qilish imkon beradigan va hisobvara q bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumot va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish.

Bank: jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida Korporativ karta, Hisobvara qdan foydalanish va boshqa operatsiyalar amalga oshirishga asosli shubha aniqlaganida; jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish uchun shubhali (gumonli) operatsiyalarni takroran sodir etish yoki Kartadan foydalanishda asosli shubhalar aniqlagan kuni bir tomonlama tartibda Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan to'liq yoki qisman bosh tortish huquqiga ega.

3.4.9. Shartnoma tuzishdan maqsad jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish operatsiyalarini amalga oshirish hisoblanishi to'g'risida shubha tug'ilgan holatda Shartnoma tuzish va Shartnomaga llovalarda keltirilgan bank xizmatlarini taqdim etishdan qonunchilik talablari asosida bir tomonlama tartibda bosh tortish huquqiga ega.

3.4.10. bank mijoz yoki uning amaliyotlari (va mazkur amaliyotga bog'liq holatlar) sanksiya doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda xizmat ko'rsatishni chegaralash, cheklash (rad etish) huquqiga ega.

### **3.5. Mijozning huquqlari:**

3.5.1. Shartnoma asosida, keyingi hisobvara qlarni ochish va/yoki tegishli arizani yuborib, Shartnoma va uning ilovalarida nazarda tutilgan bank xizmatlarini olish uchun Ariza qoldirish.

3.5.2. Bankka murojaat qilib, Autentifikatsiya ma'lumotlarini o'zgartirish.

3.5.3. Qo'shimcha xizmatlarni ulash/o'chirish (agar Bankda bunday xizmat mavjud bo'lsa) yoki xizmatlardan voz kechish orqali belgilangan tariflar doirasida bank xizmatlarini ko'rsatish shartlarini tanlash.

## **IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

4.1. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik (lozim darajada bajarmaganlik) uchun javobgar.

4.2. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bajarmaslik yengib bo'lmas kuch, ya'ni, Shartnoma kuchga kirgandan keyin yuzaga kelgan ushbu sharoitlarda favqulodda va muqarrar holatlar oqibatida yuzaga kelsa.

Yengib bo'lmas kuch holatlarining ta'sirini Tomonlar vakolatli organlarning



hujjatlari bilan tasdiqlashi kerak. Yengib bo'lmaz kuch holatlarining boshlanishi to'g'risida Tomonlar ushbu voqealar sodir bo'lganidan boshlab 5 (besh) bank ish kunidan kechiktirmay bir-birlarini xabardor qilishga majburdirlar.

4.3. Yengib bo'lmaz kuch sharoitlariga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, blokadalar, davlat manfaatlari uchun import va eksport taqiqlari va boshqalar) tufayli yuzaga kelgan, tomonlarning irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, ular tufayli tomonlar qabul qilgan majburiyatlarini bajara olmaydigan favqulodda, muqarrar va kutilmagan holatlar. Shartnomaning ushbu bandida ko'rsatilgan yengib bo'lmaz kuch holatlari to'g'risida Bank o'z vaqtida yoki to'liq xabardor qilinmagan taqdirda, Mijoz ushbu holatlarning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini uchun javobgardir.

4.4. Bank Mijozning vakolatsiz shaxslari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish oqibatida Mijozga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

4.5. Tomonlar ma'lumot yuborish va ma'lumot almashish API kanallarining xavfsizligini, ma'lumotlarning saqlanishi, yaxlitligi va ishonchliligini, shuningdek bank siriga qat'iy rioya qilinishi hamda mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari sir saqlanishini ta'minlaydi.

4.6. Agar Bankning vakillik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmasa yoki ularning bajarilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Korrespondent banklar, to'lov tizimlari va Bankning korrespondentlik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar bajarilishini ta'minlaydigan shu kabilarning harakatlari (harakatsizligi) natijasida kechiktirilsa, Shartnoma bo'yicha Mijozning topshiriqlari o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

4.7. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar va ularning xodimlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan korrupsiyaga oid, shu jumladan pora berish, pora olish, poraxo'rlikda vositachilik qilish, xizmat mavqeyi yoki vakolatlarini suiiste'mol qilish, tijorat poraxo'rliki kabi baholanadigan harakatlarni amalga oshirmasliklari, o'zi yoki uchinchi shaxslar foydasi uchun yoki boshqa noqonuniy ustunliklarga ega bo'lish maqsadida istalgan shaxslarga, shu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish uchun istalgan shaklda, shu jumladan sovg'a, huquqlar, xizmatlar, mulk taqdim etish orqali bevosita yoki bilvosita pul vositalarini to'lash yoki qimmatbaho buyumlar berishni taklif etmaydi va to'lanishiga yo'l qo'ymaydi.

4.8. Mijoz yoki u bilan munosabatga kirishgan shaxs xatti-harakatlari yuzasidan tegishli tashkilotlar tomonidan mijozga yoki u bilan munosabatga kirishgan shaxsga qo'llanilgan har qanday choralar, jumladan sanksiyalar (tegishli ro'yxatlar, OFAC, Yevropa Ittifoqining Mar va OFSI, SDN va CARTA sanksiyalari) shuningdek, sanksiyalar oqibatida vujudga keladigan har qanday turdagi zararlar uchun bank o'z majburiyatlarini bajarganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan qat'iy nazar javobgar hisoblanmaydi.

4.9. Mazkur shartnoma asosida bank o'z huquq va majburiyatlarini bajarishi munosabati yuzasidan so'ralgan ma'lumotlarning Mijoz tomonidan real vaqt rejimida taqdim etilmasligi yoki yolg'on ma'lumot berilganligi natijasida bankka yetkazilgan har qanday zarar uchun Mijoz javobgar hisoblanadi.

## **V. MAXFIYLIK**

5.1. Tomonlar har bir Tomon uchun Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zaruriyati asosida axborot almashadilar. Bir Tomon boshqa Tomonga taqdim

etadigan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga tegishli bo'lgan, uning munosabatida qonunlar bilan foydalanishni cheklash rejimi ko'zda tutilgan barcha ma'lumotlar yoki ma'lumotlarni taqdim etayotgan Tomon ochiq tarzda, bunday ma'lumot maxfiy ekanligi haqida xabardor qilgan ma'lumotlar maxfiy ma'lumot hisoblanadi va shu tarzda aniqlanadi ("Maxfiy ma'lumot").

Maxfiy ma'lumotlarga, shu jumladan, qonunchilik bilan aniqlangan tijoriy, kasbiy, xizmat, shuningdek boshqa turdagi sirlarni tashkil etuvchi shaxsiy ma'lumotlar, hisob va moliya ma'lumotlari, to'lov operatsiyalarini amalga oshirganlik to'g'risida ma'lumotlar, axborot, telekommunikatsiya va to'lov tizimlarini sozlash uchun boshqaruv ma'lumotlari kiradi. Maxfiy Ma'lumotlar undan noqonuniy foydalanishdan himoyalaniishi, uning yaxlitligi, saqlanishi hamda o'z vaqtida taqdim etilishi ta'minlanishi lozim.

5.2. Agar Qabul qiluvchi Tomon qonun bo'yicha biror-bir maxfiy ma'lumotni ochiqlashni talab qilish vakolatiga ega davlat organlariga ochiqlashi shart bo'lsa, bunda ikkinchi tomon zudlik bilan bu fakt haqida Taqdim etuvchi tomonni yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunda Taqdim etuvchi tomon lozim darajada xabardor qilingan holatda mazkur bandga muvofiq Maxfiy Ma'lumotni ochiqlaydigan Qabul qiluvchi tomon Maxfiy Ma'lumotlarni ochiqalmaslik bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan hisoblanmaydi. Bunday ochiqlash holatida Qabul qiluvchi Tomon Maxfiy Ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash uchun unga bog'liq barchasini bajarish majburiyatini oladi.

5.3. Maxfiy ma'lumot Taqdim etuvchi tomonning mulki bo'lib qoladi va u Shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlar uchun kerak bo'lmagan holatda Taqdim etuvchining talabiga binoan shunday Tomonga zudlik bilan qaytarilishi yoki Qabul qiluvchi Tomon yoki u mazkur bo'limning qoidalariga muvofiq shunday Maxfiy ma'lumotni taqdim etgan biror-bir boshqa Tomondan qilingan barcha nusxalar bilan birga yo'q qilinishi kerak.

## **VI. NIZOLARNI HAL QILISH**

6.1. Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holatlarda Mijoz va Bank o'rtasida yuzaga keluvchi barcha nizolar muzokaralar va da'vo xatlarini yo'naltirish yo'li bilan hal qilinadi. Da'vo xatini qabul qilgan Tomon uni qabul qilgan sanadan 7 (yetti) bank ish kuni ichida motivatsiyali javobni yo'naltirish shart, agar boshqa tartib va muddat umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalarda yoki Da'vo xati belgilanmagan bo'lsa.

6.2. Shartnoma yoki u bilan bog'liq holatlarda, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, bajarish, buzish, bekor qilish, tugatish, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi yoki ta'minlanishini talab qilish (to'liq va/yoki qisman) holatlarida yuzaga kelgan nizolar, kelishmovchiliklar, talab yoki da'volarni tinchlik yo'li bilan hal qilish imkonsiz bo'lgan holatda sud orqali hal qilinishi lozim.

6.3. Shartnomaning 7.2 bandida ko'rsatilganlarga qaramasdan, Mijoz O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda har qanday sudlarga o'z huquq va manfaatlarini himoyasi uchun murojaat qilish huquqiga ega.

## **VII. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH VA BEKOR QILISH TARTIBI**

7.1. Shartnoma ommaviy hisoblanishi hamda bank va bir martalik xizmatlar narxi barcha Mijozlar uchun (O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan Mijozlarning alohida toifalar uchun imtiyozlar taqdim etilishiga yo'l qo'yiladigan yoki alohida korporativ Mijozlarga bank xizmatlarini alohida sharoitlarda taqdim etish holatlari bundan mustasno) bir xil o'rnatilishini hisobga olib Shartnomada, shu jumladan unga llovalar, llovalarning soni va tarkibi hamda Bank Tariflarida o'zgarishlar va/yoki

qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-modda 1-qismiga muvofiq faqat Bank tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

7.2. Mijozning o'zgartirilgan va/yoki qo'shimchalar kiritilgan Shartnomaga roziligini qo'shimcha tasdig'i Mijozning Shartnoma/Bank Tariflari o'zgartirishi va/yoki ularga qo'shimchalar kuchga kirganidan so'ng operatsiya amalga oshirishi/Ariza berishi hisoblanadi.

7.3. Tomonlar, Bank ixtiyoridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki To'lov tizimlarining qoidalari va/yoki Bankning yangi mahsulot/xizmatlar taqdim etishi va/yoki bank mahsulotlarini taqdim etish texnologiyasining o'zgarishi yuzasidan Shartnoma, shu jumladan Shartnomaga llovalar, Bank Tariflariga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega ekanligiga kelishib olishdi.

7.4. Bank Mijozga Shartnoma, Shartnomaga llovalar va Bank Tariflarning yangi (o'zgartirilgan) tahriri haqida o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish kutilayotgan sanadan kamida 10 (o'n) kalendar kuni oldin xabar yuborish yo'li bilan o'zgarishlar va/yoki qo'shimchalar kiritadi, amaldagi qonunchilikda o'zgarishlar yoki yangi bank mahsulotining tatbiq etilishi yoki Bankning nomi yoki yuridik/pochta manzili o'zgarishi bilan bog'liq o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritiladigan holatlar bundan mustasno, bu holatda xabar berish muddati quyidagi istalgan usulda (Bankning ixtiyoriga ko'ra) kamida 1 (bir) kalendar kunida xabar beradi:

Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari, shu jumladan mos keluvchi elektron xabar yo'naltirish yo'li bilan;

Internetda [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) Bank saytida mos keluvchi e'lon va Shartnomaning yangi tahririni (o'zgarish/qo'shimchalar) joylashtirish yo'li bilan.

7.5. Agar Shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgarishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgan sanagacha Bank Mijozdan Shartnomani bekor qilishi to'g'risida yozma ariza olmasa, unda ushbu holat Mijozning kiritilayotgan o'zgarish va/yoki qo'shimchalar bilan shartisiz va to'liq roziligi hisoblanadi. Bunda Shartnomaning o'zgarishi va/yoki qo'shimchalar to'g'risida kelishuvning yozma shakliga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq rioya qilingan hisoblanadi.

7.6. Mijoz istalgan vaqtda bir tomonlama sudsiz tartibda, shu jumladan Mijozning Shartnomaga kiritilgan o'zgarishlarga noroziligi sababidan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

7.7. Shartnomaning bekor qilinishi Mijozning Bankda ochilgan Hisobvaraqlar, omonat(lar) Hisobvarag'i, shu jumladan Korporativ kartaga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan Hisobvaraqlarni yopishga asos hisoblanadi.

7.8. Shartnomani bekor qilish uchun Mijoz Bankka Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi arizani yozma shaklda yo'naltiradi. Mijoz Shartnomani bekor qilish to'g'risida arizani yo'naltirgan kun, Mijoz shuningdek Bankka Bankda ochilgan barcha Hisobvaraqlar, omonat Hisobvarag'ini yopish, shuningdek Korporativ kartalarga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan Hisobvaraqlarni yopish to'g'risida ariza yo'naltiradi. Mijozning Korporativ kartalari Bank tomonidan bloklanadi va Bank Shartnomani bekor qilish to'g'risida ariza olgan sanada haqiqiy emas deb e'lon qilinadi.

7.9. Shartnomaning amal qilishi Mijozning so'ngi hisobvarag'i bank vakolati doirasida yopilgan paytdan to'xtatiladi. Mijozning so'ngi hisobvarag'ini yopish vaqtida Mijozda Shartnoma bo'yicha Bank oldida so'ndirilmagan qarzdorlik mavjud bo'lganida Shartnoma Mijoz shunday qarzdorlikni to'liq so'ndirganidan keyin to'xtatiladi. Shartnoma bekor qilingan va/yoki Hisobvaraqlar yopilgan holatda Mijoz xizmatlar uchun to'lagan

Vositachilik haqi Bank tomonidan qaytarib berilmaydi.

7.10. Bank Shartnomani sudsiz bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega, bunga Mijoz quyidagi holatlarda rozilik bildiradi:

7.10.1. Hisobvaraqlardan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanishga asosli shubha bo'lgan holatda.

Bunday holatda Shartnoma Bank tashabbusiga ko'ra Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi xabar Mijozga yo'naltirilgan kundan 3 (uch) kun ichida bekor qilingan hisoblanadi;

7.10.2. 12 (o'n ikki) oy davomida Hisobvaraqda pul vositalari bo'lmaganida va/yoki Hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmaganida va/yoki hisobvaraqda Tariflarga muvofiq doimiy to'lovlarni to'lash uchun pul mablag'lari yetishmaganida Bank Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunda Bank Mijozga qog'ozda yoki Masofadan xizmat ko'rsatish (ibank) kanallari vositasida ogohlantirish yo'naltirgan sanadan 30 (o'ttiz) kalendar kuni o'tganidan so'ng, agar Mijoz yuqorida ko'rsatilgan muddatda Hisobvaraqqa Qarzdorlikni so'ndirish uchun yetarli hajmda pul mablag'lari kiritmasa va/yoki Hisobvaraq bo'yicha hech bo'lmasa bir operatsiyani amalga oshirmasa Shartnoma bekor qilingan, Hisobvaraq esa yopilgan hisoblanadi.

7.10.3. ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Ilovalarda ko'rsatilgan Umumiy shartlar bilan belgilangan boshqa holatlarda.

## **VIII. YAKUNIY QOIDALAR**

8.1. Shartnoma o'zgartirishlar kiritish yoki uning bekor qilinishi Mijoz va/yoki Bankni bunday o'zgarish kiritilgan yoki bekor qilingan paytgacha yuzaga kelgan Shartnoma (Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnoma) bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

8.2. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq talqin qilinishi kerak.

8.3. Agar Shartnoma va unga ilovaning biror-bir qoidasi noqonuniy, bekor qilingan yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qo'llanadigan sud himoyasida foydalanilmaydigan holatga kelsa, Shartnoma va unga ilovaning bunday qoidalari Bank va Mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga qo'llanmaydi hamda eng qisqa muddatlarda almashtiriladigan qoidaning mohiyati va maqsadiga eng yaqin qoida bilan almashtiriladi. Bunda Shartnoma va unga ilovalarning qolgan qoidalari o'zining to'liq kuchi va haqiqiylikini saqlab qoladi.

8.4. Agar qonunchilik hujjatlarida boshqa holat belgilanmagan bo'lsa, Shartnoma bo'yicha tomonlardan istalgan biri u amalda bo'lgan davrda biror-bir qayta tuzilish v o'zining yuridik holatida boshqa o'zgarishlarga uchrasa, Shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va o'zgarishlarga uchragan Tomon Shartnoma bo'yicha huquqlarni unda keltirilgan barcha majburiyatlarni saqlab qolgan holda qabul qiladi.

## **IX. YURIDIK MANZILLAR, BANK REKVIZITLARI**

### **Aksiyadorlik-tijorat "Aloqabank"**

Manzil: 100164, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Tepamasjid Ko'chasi 4-uy.

Rekvizitlar:

FAA: 00401

STIR: 200829053

Ma'lumot uchun telefon (Bankning Aloqa-Markazi): +998 71 230-77-77

Ishonch telefoni: +998 71 230-44-44

Bankning sayti: [www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz)

e-mail: [info@aloqabank.uz](mailto:info@aloqabank.uz)

AT "Aloqabank" "Yuridik shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga bank hisobvaraqlarini ochish va ularga masofadan turib (distantion) elektron bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta shartnomasi"ga 1-ilova

**Bank hisobvaraqlarini ochish va ularga masofadan turib  
(distantion)elektron bank xizmatlarini ko'rsatish**

**ARIZA**

Sizdan STIR/JSHSHIR \_\_\_\_\_ bo'lgan \_\_\_\_\_ nomiga  
(hisobvaraqlar egasining nomi)

So'm                       AQSh dollar                       Yevro                       Rossiya rubli                       Yuan da  
(valyutaning nomi)

Talab qilib olinguncha     asosiy                       ikkilamchi

Mijozlarning boshqa depozitlari bo'yicha majburiyatlari

\_\_\_\_\_ hisobvaraqlar

ochishingizni, shuningdek quyidagi bank mahsulotlaridan foydalanishga ruxsat berishingizni so'rayman:

<input type="checkbox"/> "Internet-bank" xizmati	<input type="checkbox"/> "SMS-banking" xizmati*	<input type="checkbox"/> "Mobil-bank" xizmati (Aloqa Business)
--	---	---

Manzil: \_\_\_\_\_  
(tadbirkorlik subyektining joylashgan joyi, shuningdek faoliyatini amalga oshirish manzili)

Telefon raqam: \_\_\_\_\_  
(«SMS–banking» xizmati o'rnatib beriladigan raqam)

**Mazkur arizani to'ldirish vaqtida Ommaviy oferta shartnomasi va Bank tarifi bilan**

<input type="checkbox"/> Bankning veb-saytidan	<input type="checkbox"/> Bank stendidan	<input type="checkbox"/> Bank xodimlaridan
<p><b>tanishdim</b>, shuningdek unda ko'rsatilgan bank hisobvaraqlarini ochish va ularga masofadan turib elektron bank xizmatlarini ko'rsatish shartlari bilan shartnomani qabul qildim. Shu munosabat bilan Men ommaviy oferta shartnomasi shartlariga muvofiq hisobvaraqlar ochish va unga elektron bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha rozilik beraman. Tashkilot hisobvarag'i boshqa banka o'tkazilgan taqdirda, ommaviy oferta shartnomasi shartlari asosida ochilgan hisobvaraqlar va unga elektron bank xizmatlari ko'rsatish, shuningdek, hisobvaraqlar xizmat ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta shartnomasi bekor qilingan deb hisoblashingizni so'rayman.</p> <p><b>Aktsept qabul qilinganligidan xabardor etildim.</b> *Korxonada hisob raqamida bank xizmatlaridan tashqari pul aylanmasi uch oy bo'lmagan taqdirda SMS-xizmatini o'chirib berishingizni so'raymiz.</p>		

Tashkilot rahbarining F.I.Sh: \_\_\_\_\_

Sana: " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 20\_\_ y. Rahbarning imzosi \_\_\_\_\_ M.O'.

**Bank belgilari**

Ariza qabul qilingan sana:  
" \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 20\_\_ y

Qabul qilgan xodim: \_\_\_\_\_  
(imzo)

Boshqaruvchi \_\_\_\_\_  
(imzo)

AT "Aloqabank"da Yuridik shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga bank hisobvaraqlarini ochish va ularga masofadan turib (distantcion) elektron bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta shartnomasiga 2-ILOVA

## **Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisob raqamlariga xizmat ko'rsatish shartnomasi (keyingi o'rinlarda-shartnoma)**

### **1.FOYDALANILGAN TERMIN VA ATAMALAR**

**Bank hisobvarag'i** –yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning naqd pulsiz hisob-kitoblarda ishtirok etishlari va/yoki maqsadli foydalanish uchun pul mablag'larini jamlash maqsadida ochilgan hisobvaraq. Mazkur shartnomada bank hisobvarag'i deganda asosiy va boshqa depozit hisobvaraqlar tushuniladi.

**Asosiy hisobvaraq** – mijozning davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng birinchi marta milliy valyutada ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idir.

**"Internet-banking" tizimi** – masofaviy bank xizmatlari tizimi bo'lib, bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan, pul mablag'larini boshqarishning tezkorligini hamda bank operatsiyalarini sifatli qayd qilinishini ta'minlaydi.

**Bank tariflari** – bank tomonidan xizmat ko'rsatish vaqtida amalda bo'lgan va bank tomonidan tasdiqlangan komission to'lovlar tarifi.

### **2. SHARTNOMA MAZMUNI**

2.1. Mazkur shartnoma amal qilish muddati davomida bank va mijoz o'rtasida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga zid bo'lmagan, mijozning milliy va/yoki xorijiy valyutada bank hisobvaraqlarini 1-ilovada keltirilgan, tegishli shaklda to'ldirilgan va bankka taqdim qilingan arizalar va ushbu shartnomaning 4-ilovasida keltirilgan hujjatlar taqdim qilinishiga muvofiq ochish, yuritish va yopish, valyuta operatsiyalari hamda kassa xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa turdagi bank xizmatlarini ko'rsatadi.

### **3.TOMONLARNING HUQUQLARI**

3.1. Mijozning huquqlari:

3.1.1. Bank hisobvarag'idagi mablag'larini qonunchilikda belgilangan tartibda erkin tasarruf etish;

3.1.2. Bankning hisob-kitob va kassa xizmatlaridan foydalanish, mustaqil ravishda naqd pul tushumlarini bank kassalariga inkassatsiyalash, inkasso bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov topshiriqnomalarini o'z vaqtida bajarilishini bankdan talab qilish;

3.1.3. Naqd pul mablag'larini olish:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq asosiy hisobvarag'ida pul mablag'lari va broni mavjud bo'lganda ish haqi va boshqa ehtiyojlar uchun naqd pul mablag'larini ish haqi to'lash grafigiga asosan olish;

- O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligida o'rnatilgan tartib va cheklovlarga muvofiq talab qilib olinguncha depozit hisob raqamidan xorijiy valyuta mablag'larini olish.

3.1.4. Qonunchilikka muvofiq o'rnatilgan tartibda bank tomonidan shartlar hamda boshqa majburiyatlar o'z vaqtida va/yoki to'liq bajarilmaganligi oqibatida etkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish;

3.1.5. Belgilangan maqsadga ko'ra tushmagan pul mablag'larini qidirish, aniqlash va qaytarishda yordam so'rab bankka murojaat qilish;

3.1.6. Bankka yozma ariza berish orqali axborot texnologiyalari xizmatidan foydalanish jarayonida mobil aloqa raqamlari/elektron pochta manzillarini kiritish/ulanish yoki mavjudlarini o'chirish

3.1.7. Ushbu shartnomaning 4.1.13. bandida ko'rsatilgan xabarnoma olish usulini bankka shaxsan yozma ariza taqdim etish yo'li bilan yoki pochta orqali o'zgartirish.

### 3.2. Bankning huquqlari:

3.2.1. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari, bank tomonidan o'rnatilgan tartiblarga amal qilinmaganda, shuningdek, hisob-kitob hujjatlari noto'g'ri rasmiylashtirilganda va o'z vaqtida taqdim etilmaganda hamda qonunchilikka zid bo'lgan operatsiyalar amalga oshirilganda mijozning hisob-kitob, kassa hujjatlarini qabul qilish va/yoki ijrosini rad etish;

3.2.2. Mablag'larning but saqlanishi va ularning mijoz tomonidan erkin tasarruf etilishini kafolatlagan holda mijozning bo'sh mablag'laridan foydalanish;

3.2.3. Mijozning bank hisobvarag'idagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq bank tomonidan majburiy ijro etilishi lozim bo'lgan hisob-kitob hujjatlari asosida (aktseptsiz to'lov talabnomalari, inkasso topshiriqnomalari va hokazo) hamda qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda yoki bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomalarda belgilangan holatlarda mijozning roziligisiz hisobdan chiqarish.

3.2.4. Quyidagi holatlarda pul mablag'lari mijozning roziligisiz uning bank hisobvaraqlaridan hisobdan chiqariladi:

- ushbu Shartnoma yoki unga qo'shimcha kelishuvga asosan bank tariflarida belgilangan miqdorda bank xizmatlari haqi memorial order yoki to'lov talabnomasi orqali to'langanda;

- ushbu shartnomani bajarishda bank tomonidan barcha pochta, telegraf va boshqa xarajatlar uchun to'lovlar amalga oshirilganda;

- qonunchilikda ko'rsatilgan birinchi navbatdagi to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng, mijozning ushbu hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'laridan bank oldidagi muddati o'tgan qarzdorligi qoplanganda;

- Bank tomonidan bank hisobvarag'iga xato kiritilgan pul mablag'larini hisobdan chiqarishda;

-O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan boshqa holatlarda.

3.2.5. Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'luvchi hujjatlarning haqiqiyiligiga shubha tug'ilganda, bu haqda imzolash huquqiga ega bo'lgan bank mansabdor shaxslariga xabar berib, operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatish.

3.2.6. Mijozning 2-sonli kartotekasi bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda, uning ikkilamchi hisobvaraqlaridan (hukumat qarorlari asosida ochilgan maqsadli, akkreditiv, jamg'arma va muddatli depozit hisobvaraqlari bundan mustasno) mablag'larni



mijozning qarz majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar uning asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazish va ikkilamchi hisobvaraqlardagi operatsiyalarni to'xtatib qo'yish;

3.2.7. Bank ish kuni yakunlash va balans hisobotlarini tuzishda, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, keyingi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlarini kiritish yo'li bilan tegishli summalarni mijozning roziligisiz hisobvaraqlardan hisobdan chiqarish;

3.2.8. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, bank hisobraqami bo'yicha amaliyotlarni to'xtatish yoki ularni amalga oshirishni rad etish, shuningdek mijoz hisobvaraqlaridagi pul mablag'lariga band solish.

3.2.9. Mijozga ko'rsatilgan xizmatlar uchun komissiya to'lovlarini mazkur shartnoma shartlari va bank tomonidan tasdiqlangan tariflar asosida uning topshirig'isiz yechib olish.

3.2.10. Mijozni yozma va/yoki elektron shaklda ogohlantirish, shuningdek bankning rasmiy veb-saytida e'lon berish orqali bankning amaldagi tariflariga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish.

Ushbu holatda, mijoz tomonidan 10 (o'n) bank ish kunida yozma ravishda e'tiroz bildirilmasa, bank tariflariga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar tomonlar uchun majburiy bo'ladi.

3.2.11. Bank o'zida mazkur shartnomani qayta ko'rib chiqish huquqini saqlab qoladi. Ushbu shartlar bir tomonlama o'zgartirilgan taqdirda, bank ushbu o'zgartirilgan shartlar bilan mijozni xabardor qiladi (yozma va/yoki elektron shaklda). Ushbu holatda, mijoz tomonidan 10 (o'n) bank ish kunida yozma ravishda e'tiroz bildirilmasa, bank tomonidan shartnoma bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar tomonlar uchun majburiy bo'ladi.

3.2.12. Mijoz yoki operatsiya qatnashchilaridan birining barcha identifikatsiya ma'lumotlari maxsus vakolatli davlat organi vakillari tomonidan shakllantirilgan ro'yxatga kiritilgan shaxsning ma'lumotlari bilan to'liq mos kelgan taqdirda tijorat banki bu operatsiyani kechiktirmasdan va oldindan xabar qilmasdan to'xtatib turadi (yuridik yoki jismoniy shaxsning hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish bo'yicha operatsiyalar bundan mustasno) va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yadi.

3.2.13. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari (O'R AV 23.05.2017 yilda 2886-son bilan ro'yxatga olingan)ning 62-bandiga muvofiq, bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar, bank tomonidan ushbu xizmatni ko'rsatishni to'xtatib turish, yoki xizmat ko'rsatishni rad etishga haqli.

3.2.14. Bank xalqaro operatsiyalarni amalga oshirmaslik huquqiga ega, agarda bankda ushbu operatsiyani amalga oshirayotgan Korrespondent bankning bunday operatsiyani amalga oshirmaslik talabi mavjud bo'lganda.

3.2.15. Bank Mijozning ichki valyuta bozorida sotib olgan valyutasini qonunchilikda ko'zda tutilgan xollarda so'zsiz tarzda qaytib sotib olish huquqiga ega.

#### **4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

4.1. Bankning majburiyatlari:

4.1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda bankning amaldagi qoidalariga muvofiq mijoz hisobraqami bilan bog'liq quyidagi amaliyotlarini amalga oshiradi:

a) mijozning bank hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini tegishli to'lov hujjati asosida kelib tushgan kunning o'zida yoki keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozning bank hisobvarag'iga kiritadi;

b) mijozning bank hisobvarag'idan pul mablag'larini tegishli to'lov hujjatlari asosida o'tkazish (to'lash) to'g'risidagi topshiriqlarini bajaradi;

v) mijozning qarz majburiyatlari bo'yicha to'lov talabnomalari va inkasso topshiriqnomalarini ijro qiladi;

g) amaldagi qonunchilik va mazkur shartnomaga muvofiq mijozdan naqd pul mablag'larini qabul qiladi va beradi;

d) kun yakunida bank tariflariga asosan foizlarni hisoblaydi;

j) boshqa hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatadi (bank va mijoz o'rtasida alohida shartnomalar asosida tartibga solinadigan munosabatlar bundan mustasno);

k) Mijozning buyurtmasiga ko'ra valyuta sotib olish/sotish/konversiya amaliyotlarini o'tkazishi mumkin;

l) Valyuta sotib olish/sotish/ konversiya amaliyotlarini O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi;

m) Valyuta sotib olish/sotish/konversiya qilish kursi Bankning operatsiya amalga oshiriladigan kundagi kursi hisoblanadi, agar Taraflar o'rtasida boshqa kelishuv ko'zda tutilmagan bo'lsa;

Mijozning bank hisobvarag'i yopilganda, bank qoldiq mablag'lar bo'yicha amaliyotlarni amaldagi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda amalga oshiradi.

4.1.2. Mijozning bank hisobvaraqlaridan faqat uning topshirig'i bo'yicha yoki uning roziligi bilan bankka to'lov hujjati kelib tushgan kuni yoki kelgusi ish kunidan kechiktirmay mablag'larni (aktseptsiz to'lov talabnomasi va inkasso topshiriqnomasi bundan mustasno) hisobdan chiqaradi. Mijozning asosiy hisobvarag'ida mablag' mavjud bo'lmagan yoki etarli bo'lmagan taqdirda, bank to'lanmagan to'lov hujjati summasini 2-sonli kartotekaga kirim qiladi (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

4.1.3. Mijozga belgilangan xizmat ko'rsatish jadvaliga muvofiq (dam olish kunlaridan tashqari) muayyan vaqt mobaynida xizmat ko'rsatadi.

4.1.4. Mijoz topshirig'iga asosan hisob-kitob amaliyotlarini O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaldagi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradi. (Pul hisob-kitob hujjatlari bank tomonidan ijroga faqat mijozning taqdim qilgan imzo namunalari va muhr izi agar ko'zda tutilgan bo'lsa, qo'yilgan varaqchada ko'rsatilgan shaxslar va mijozning ishonchnomasi asosida vakil qilingan shaxsdan qabul qilinadi).

4.1.5. To'lov hujjatlarini qabul qilishda barcha zarur rekvizitlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi va to'lov hujjati bankka kelib tushgan kuni (agar amaliyot kuni davomida kelib tushgan bo'lsa) yoki kelib tushgan kunning keyingi ish kunidan (agar amaliyot kuni tugagandan keyin kelib tushgan bo'lsa) kechiktirmay uning ijrosini ta'minlaydi.

4.1.6. Mijozning talabiga muvofiq uning o'ziga yoki ishonchli vakiliga bank hisobvarag'idan ko'chirmalarni va boshqa tegishli hujjatlarni beradi.

4.1.7. Qonunchilikka muvofiq mijozga taalluqli bo'lgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydi.

4.1.8. Mijoz hisobvarag'idagi mavjud pul mablag'larini but saqlanishini ta'minlaydi.

4.1.9. Mijozning asosiy hisobvarag'ida mablag' bo'lganda yoki mablag' yetishmaganligi sababli mablag'larni band qilishga doir bron mavjud bo'lgan hollarda ish haqi va qonunchilikda belgilangan boshqa ehtiyojlari uchun pul mablag'larini birinchi talabdayoq berilishini ta'minlaydi.

4.1.10. Mijozning talabiga ko'ra bank tariflarida belgilangan komissiya to'lovlarini to'lash sharti bilan SMS axborot xizmatlari mijozning arizasiga (3-ilova) asosan taqdim etadi. Mijozning bankdagi hisobvarag'i orqali 3 oy davomida bank amaliyoti bajarilmagan taqdirda SMS axborot xizmat bank tomonidan bekor qilinishi mumkin.

4.1.11. Mijozning bankda ochilgan hisobraqamlariga masofaviy xizmat ko'rsatish axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va Internet yordamida ishlaydigan kichik tizimlardan iborat "Internet-banking" tizimi bo'yicha axborotni ishlash, saqlash, himoya qilish va yuborish operatsiyalarini bank mijozga masofadan himoyalangan tizim orqali amalga oshiradi.

4.1.12. Masofaviy xizmat ko'rsatish mijozning talabiga ko'ra elektron hujjatlarni qayta ishlash va mijozning bank hisobvaraqlari bo'yicha elektron shaklda hisobotlar taqdim etish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va "Internet-banking" dasturiy kompleksidan foydalangan holda mijozga xizmat ko'rsatish shartnomasiga asosan amalga oshiriladi.

4.1.13 Mijozga xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish:

- Mijozning bank hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda bank amaliyoti to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda.

4.2. Mijozning majburiyatlari:

4.2.1. Bankka hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etadi. Valyuta operatsiyalari amalga oshirilganda mijoz to'lov hujjati bilan bir vaqtda bankka O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi talablariga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq zarur hujjatlarni (valyuta amaliyotlari uchun asos bo'luvchi hujjatlar va hokazo) taqdim etadi.

4.2.2. Bankda belgilangan ish tartibi, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga rioya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging amaldagi me'yoriy hujjatlari talablarini bajaradi. Bankka taqdim etiladigan hujjatlar nusxalarini tegishli tartibda rasmiylashtirish va tasdiqlanishini ta'minlaydi.

4.2.3. Bank hisobvarag'ida mablag' mavjud bo'lganda ish haqi va boshqa qonunchilikda belgilangan ehtiyojlar uchun pul mablag'lari olishning kalendar jadvaliga muvofiq pul chekini bankka naqd pul olish kunidan bir kun oldin taqdim etadi va olingan mablag'lardan qat'iy belgilangan maqsadlarda foydalanadi.

4.2.4. To'lovlarni amalga oshirish uchun bank hisobvarag'ida etarli pul mablag'lari mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

4.2.5. Ko'rsatilgan bank xizmatlari bo'yicha to'lovlarni mazkur shartnomaning 6-bo'limida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

4.2.6. Bank talabiga ko'ra boshqa davlatlar subyektlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshirilgan eksport-import va boshqa operatsiyalari to'g'risida, shuningdek, zaruriyat tug'ilganda, qonunchilik asosida bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi.

4.2.7. Mijozning tashkiliy huquqiy shakli o'zgarganda, bu to'g'risidagi ma'lumotlarni 3 bank ish kuni mobaynida, yuridik manzili o'zgarganda esa, bu to'g'risidagi ma'lumotlarni 5 bank ish kuni mobaynida yozma shaklda bankka taqdim qiladi.

4.2.8. Deponentga o'tkazilgan ish haqi, pensiya, nafaqa va moddiy yordam

pullarini belgilangan muddatda bank kassasiga topshiradi.

4.2.9. Naqd pullarni kirim qilish va sarflash tartibiga, kassa intizomiga hamda limitdan ortiqcha naqd pullarni Inkassatsiya xizmati orqali bankka topshirish tartibiga rioya etadi.

4.2.10. Bankka "jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan funksiyalarni va ushbu shartlarni bajarishi uchun zarur bo'lgan ma'lumot va hujjatlarni taqdim qiladi.

4.2.11. Mustaqil ravishda barcha tadbirlarni amalga oshirish, ya'ni operatsiyalarni amalga oshirish vaqtida sanksiya qo'llanilgan ro'yxatda (OFAC, EU (es) i OON (UN) va boshqalar) bo'lganligi sababli xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish mumkin emasligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va pul mablag'larini muzlatib qo'yilishiga olib keladigan oluvchi, jo'natuvchi va boshqa shaxslarni (shu jumladan ta'sischilar, haqiqiy egalar, mulkdorlar va boshqalar), shuningdek jo'natuvchi/oluvchining mamlakatlarini va banklarini to'g'risidagi axborotlarni o'rganish.

## **5. BANK SIRI**

5.1. Bank "bank siri to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini sir saqlanishini kafolatlaydi.

5.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat mijozning yozma murojaatiga asosan uning o'ziga yoki uning ishonchli vakiliga shuningdek "Bank siri to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan boshqa shaxslarga taqdim etilishi mumkin.

5.3. Bank mijozga pullik axborot xizmatlarini taqdim qilishda, texnik xizmat ko'rsatuvchi shaxslarga bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni yuborish bank sirini oshkor etish hisoblanmaydi deb taraflar bilan kelishilgan.

## **6. BANK XIZMATLARI UCHUN TO'LOVLARNING MIQDORI VA TO'LASH TARTIBI**

6.1. Ushbu Shartnomani qabul qilib, Mijoz Bankning rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish uchun standart tarif shartlariga obuna bo'ladi. Shu bilan birga, Mijoz, agar bunday tarif rejasi/paketi uchun belgilangan mezon/shartlarga javob bersa, Bankning tarif rejaları/paketlariga ulanish huquqiga ega.

6.2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 780-moddasiga muvofiq, mijoz bankning hisobvaraqda turgan pul mablag'lari bilan operatsiya qilish bo'yicha xizmatlariga ushbu shartnoma va bank tariflarida nazarda tutilgan shartlar asosida haq to'laydi.

6.3. Bank hisobvaragi bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun mijoz tomonidan to'lanadigan xizmat haqi miqdori xizmat ko'rsatish sanasida amalda bo'lgan, bank tomonidan tasdiqlangan tariflar asosida belgilanadi.

6.4. Mijozga ko'rsatilgan xizmatlar uchun vositachilik haqi bank tomonidan mijozning hisobvarag'idan mablag'larni aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish yo'li bilan undirib oladi.

6.5. Mijozning bank hisobvarag'ida mablag' mavjud bo'lmaganda yoki etarli bo'lmaganda, to'lanmagan xizmat haqlari bo'yicha bank tomonidan aktseptsiz to'lov talabnomalari yoki memorial orderlar o'rnatilgan tartibda mijozning 2-sonli kartotekasiga joylashtiriladi va ijro etiladi.

6.6. Soʻmdagi chek daftarchasi boʻyicha xizmat koʻrsatilganligi uchun mijoz bankka operatsiya oʻtkazilgan sanada amalda boʻlgan bank tariflari asosida toʻlovni amalga oshiradi.

6.7. Mijozning bank hisobvaragʻiga kelib tushgan naqdsiz pul mablagʻlarini kiritib qoʻyish uchun vositachilik haqi olinmaydi.

6.8. Ish haqi va qonunchilikda belgilangan boshqa ehtiyojlar uchun naqd pul mablagʻlarini berilishida vositachilik haqi olinmaydi.

6.9. Mijozning oʻz xizmati orqali (samonos) bank kassasiga naqd pul tushumlar topshirilganda mazkur tushumlar bank tomonidan oʻrab bogʻlanganligi uchun topshirilgan tushumning 0,5 % miqdorida bank xizmat haqi undiriladi.

6.10. Mijozning oʻz xizmati orqali (samonos) bank kassasiga ikkilamchi hisobvaragʻiga naqd pul tushumlar topshirilganda mazkur tushumlar bank tomonidan oʻrab bogʻlanganligi uchun topshirilgan tushumning 0.5 foiz miqdorida bank xizmat haqi undiriladi.

6.11. Topshirilgan tushum doirasida naqd pul mablagʻlarini berish uchun Tarifga asosan xizmat haqi undiriladi.

6.12. Bank xizmatlarining narxi taraflar oʻrtasidagi boshqach kelishuvda (mijozning arizasi va yoki alohida shartnomada) belgilab qoʻyilmagan hollarda xizmatlar uchun toʻlanadigan haq Bank Tariflariga muvofiq belgilanadi.

6.13. Mijoz kichik tadbirkorlik subyektini hisoblansa bank hisobvaraqlaridan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga soliqlar va unga tenglashtirilgan boshqa majburiy toʻlovlarni toʻlashda bank xizmati haqi olinmaydi.

## **7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

Taraflardan biri Shartnoma boʻyicha majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ushbu taraf boshqa tarafga etkazilgan zararni toʻlaydi, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgar boʻladi.

7.1. Bankning javobgarligi:

7.1.1. Mijozning bank hisobvaragʻi boʻyicha operatsiyalarini oʻz vaqtida amalga oshirilmaganligi;

7.1.2. Mijozning bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarini noqonuniy ravishda oshkor qilinmasligi;

7.1.3. Mijozning qonunchilikda belgilangan tartibda bank hisobvaraqlariga mablagʻlarni hisobga kiritish tartibini buzganlik va bank hisobvaragʻidan mablagʻlarni asossiz ravishda hisobdan chiqarganlik uchun;

7.1.4. Bank tomonidan elektron toʻlovlarni amalga oshirishning qonunchilikda belgilangan muddatlari buzilgan taqdirda, bank mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun elektron toʻlov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq kechiktirilgan elektron toʻlov summasining 10 foizidan koʻp boʻlmagan miqdorda penya toʻlaydi.

7.1.5. Bank mijozning bank hisobvaragʻidagi mablagʻlarini uning topshirigʻisiz yoki roziligini olinmasdan (aktseptlanmagan), bank tomonidan (qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilgan hisobdan chiqarish holatlari bundan mustasno) hisobdan chiqarilgan (oʻtkazib berilgan) taqdirda, ushbu mablagʻlarni bank hisobvaragʻiga tiklaydi va boy berilgan foydani qonunchilikda belgilangan tartibda qoʻplab beradi.

7.1.6. Bank aybi bilan elektron to'lovlarni xato amalga oshirilgan taqdirda bank mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay o'tkazishi zarur. Aks holda, mijoz qonunda belgilangan tartibda bankdan mablag'larni qaytarilishini talab qilish, shuningdek har bir kechiktirilgan kun uchun xato amalga oshirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foiz miqdorida, biroq xato amalga oshirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lanishini talab qilishga haqli.

7.2. Mijozning javobgarligi:

7.2.1. Mijoz bank hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalarning qonuniyligi uchun javobgardir.

7.2.2. Mijoz bankka hisobotlarning o'z vaqtida taqdim etilishi va to'g'ri rasmiylashtirilishi, hamda bankka taqdim qilingan hujjatlarda qayd etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgardir.

7.2.3. Mijoz axborot xizmatiga ulangan uyali telefon raqami/elektron pochta manzili o'zgartirildi yoki uyali telefon raqami/ elektron pochta manzili o'chirilganda bankka yangi uyali telefon raqami/elektron pochta manzilini ulash uchun o'z vaqtida ariza taqdim etish uchun javobgardir.

7.2.4. Hisobvaraqa egasi unga ko'chirmalar berilganidan keyin 2 bank ish kuni mobaynida bankka hisobvaraqa krediti yoki debetiga xato yozilgan summalar haqida yozma ravishda xabar qilishi shart. Ko'rsatilgan muddat ichida mijoz o'z e'tirozini bildirmasa, bajarilgan amaliyotlar hamda hisobvaraqdagi mablag' qoldig'i tasdiqlangan hisoblanadi.

7.2.5. "Internet-banking" tizimi orqali olingan elektron yoki chop etilgan hujjatlarning (hisobvaraqdan ko'chirmalar, bankdan xatlar va boshqalar) butligi va maxfiyligi uchun javobgardir.

## **8. BANKNI BELGILANGAN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH**

8.1. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod qilinadi:

- a) banklararo elektron to'lovlar tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;
- b) bank mijoz tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlari taqdim qilinganda;
- v) qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlarga asosan mijozning bank hisobvaraqlari orqali amaliyotlar to'xtatilganda;
- g) naqd pul olish uchun o'z muddatida taqdim etilmagan to'lov hujjatlarda yoki taqdim etilgan hujjatlarda noaniqliklar va xatoliklar mavjud bo'lganda;
- d) elektr-energiyasi o'chirilgan hollarda hamda fors-major vaziyatlarda.
- j) mijoz tomonidan SMS axborot xizmatiga ulangan uyali telefon raqami/elektron pochta manzili noto'g'ri taqdim etilganda shuningdek, uyali telefon raqami/elektron pochta manzili o'zgartirilganligi yoki o'chirilganligi to'g'risida bankka o'z vaqtida xabar berilmaganda;
- z) mijoz tomonidan bankning axborot xizmatlari (SMS axborotlash, "Internet banking", "Mobile banking" va boshqalar) orqali ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etganda;
- i) bankning aybi bo'lmagan boshqa holatlarda mijozga zarar etkazilganda.

## **9. FORS-MAJOR HOLATLAR.**

9.1. Shartnoma shartlari qabul qilinganidan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv toshqini, yong'in, zilzila va tabiiy ofatning boshqa ko'rinishlari, embargo, harbiy harakatlar, namoyishlar, davlat idoralari tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar tufayli ushbu shartlar bo'yicha har qanday majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmagan hollarda tomonlardan hech biri javobgar bo'lmaydilar.

9.2. Fors-major holatlar va ularning oqibatlari besh oydan ortiq davom etgan hollarda har bir taraf majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishga haqlidir va bunday holatda bir taraf ikkinchi tarafdin har qanday etkazilgan zararni qoplash bo'yicha harakatlarni amalga oshirishni talab qila olmaydi.

9.3. O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari tomonidan chiqarilgan hujjatlar fors-major holatlarini tasdiqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

## **10. HISOB RAQAMNI YOPISSH TARTIBI**

10.1. Shartnomaga kiritilgan barcha ilovalar, qo'shimcha va o'zgartirishlar ushbu shartnomaning ajralmas qismidir.

10.2. Hisobraqam quyidagi holatlarda yopiladi:

- Mijoz tomonidan shartnoma talablari buzilgan holda bankning talabiga ko'ra;
- sud qaroriga asosan yoxud qonunda, shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda yoki mazkur shartnomada ko'rsatilgan holatlarda;
- Mijoz tomonidan xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha to'lovlar to'liq amalga oshirilgandan so'ng, mijozning arizasiga ko'ra xohlagan vaqtda o'rnatilgan tartibda.

10.3. Tomonlar hisob-kitob hisobvarag'i quyidagi hollarda suddan tashqari yopilishi kerakligi to'g'risida kelishib oldilar:

- mijozning iltimosiga ko'ra qog'oz yoki elektron shaklida bankka yuborilganda;
- ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlarni taqdim etish/ulardan foydalanishni mazkur shartnomada belgilangan tartibda tugatish;
- mijoz tomonidan ushbu shartnoma shartlari sezilarli darajada buzilgan taqdirda bankning talabi bilan;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki bankning ichki qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

10.4. Bank amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatish huquqiga ega.

10.5. Shartnoma bekor qilingandan so'ng mijozning bank hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i uning tegishli yozma arizasiga asosan kechi bilan 7 (yetti) kun ichida mijozga beriladi yoki uning ko'rsatmasiga ko'ra boshqa bank hisobvarag'iga o'tkaziladi. Bank hisobvarag'i shartnomasining bekor qilinishi mijozning bank hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi. Shartnoma bekor qilingan sanadan e'tiboran 7 kun mobaynida mijoz mablag'larini boshqa hisobvaraqa o'tkazish to'g'risida yozma ko'rsatma bermasa, bank mijozning hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'ini 29842- hisobvaraqa o'tkazadi. Ushbu qoldiq miqdoriga foizlar hisoblanmaydi.

10.6. Mijozning asosiy hisobvarag'i, ushbu mijozga tegishli boshqa bank hisobvaraqlari yopilgandan keyingina yopiladi.

10.7. Ushbu shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan tartibga solinadi.

## **11.SANKSIYALARGA OID SHARTLAR**

11.1. Tomonlar ushbu shartnomaning 11.2-bandida ko'rsatilgan hamda mijoz o'z

biznesini sanksiyalarga qat'iy rioya qilgan holda olib borganligi va amalga oshirayotganligi, mijoz shartlar qabul qilgan sanadan boshlab sanksiyalarni qo'llash va amalga oshirishga qaratilgan, shu jumladan, ushbu bilan cheklanmagan holda tushuniladigan AQSh Moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (Office of Foreign Assets Control of U.S. Department of the Treasury) yoki AQSh hukumatining har qanday boshqa organi, departamenti yoki agentligini, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Buyuk Britaniya, Evropa Ittifoqi yoki Evropa Ittifoqiga a'zo har qanday davlatlarning har qanday iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalarga olib keladigan siyosat va tartiblariga rioya qilishi va bajarishi kafolati asosida tuzadilar.

11.2. Mijoz quyidagilarga kafolat beradi, tasdiqladi va ta'minlash majburiyatini oladi:

a) na mijoz, na uning filiallari, na aktsiyadorlari yoki mijozning har qanday aktsiyadorlari sanksiyalangan shaxslar hisoblanmaydi va Evropa Ittifoqining sanksiyalar ro'yxatiga, va (yoki) Buyuk Britaniya va (yoki) sanksiyalar ro'yxatida SDN (Specially Designated Nationals and Blocked Persons List - maxsus tayinlangan fuqarolar va bloklangan shaxslar ro'yxati), CAPTA (List of Foreign Financial Institutions Subject to Correspondent Account or Payable-Through Account Sanctions - hisob sanksiyalari orqali - xorijiy moliya institutlarining ro'yxati, Korrespondent hisob yoki to'lov hisobini ochish yoki yuritish taqiqlangan yoki bir yoki bir nechta qat'iy shartlarga rioya qilingan holda), NS-MBS (Non-SDN Menu-Based Sanctions List - SDN ga asoslanmagan sanksiyalar ro'yxati), AQSh Moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi tomonidan boshqariladigan (Office of Foreign Assets Control of U.S. Department of the Treasury) shuningdek, yoki har qanday ekstraterritorial ta'sirga ega bo'lgan boshqa sanksiyalar ro'yxatiga kiritilmagan;

b) na mijoz, na uning affillangan shaxslari va/yoki aktsiyadorlari iqtisodiy sanksiyalar bilan taqiqlangan har qanday shaxs yoki tashkilot bilan hech qanday bitimlar yoki bitim tuzishda yoki iqtisodiy sanksiyalarni buzish ehtimoli bo'lgan har qanday shaxslar yoki sanksiyalangan shaxslarga foydasiga qo'llanadigan bitimlar tuzishda qatnashmagan va qatnashmaydi;

c) mijoz sanksiyadagi shaxslar bilan yoki ularning manfaati uchun to'lovlarni amalga oshirmaydi va hech qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi;

g) Agar mijozning qandaydir kafolati yolg'on, ishonchsiz va (yoki) noaniq yoki ushbu shartnomaning 11.2-bandda ko'rsatilganlardan biri mijoz tomonidan ta'minlanmasa, mijozning to'lov topshiriqnomalarini amalga oshirishda pul mablag'larini qaytarish, blokirovka qilish, muzlatish, yo'qotish uchun moddiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday holda, mijoz bankka ushbu shartnomaning 11.2-bandda nazarda tutilgan majburiyatni mijoz tomonidan buzganligi sababli yoki mijozning bunday kafolatining ishonchsizligi yoki noto'g'riligi natijasida yoki shu bilan bog'liq holda yuzaga kelgan, boshqa tomonning so'rovi olingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmay yetkazilgan to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) bilvosita zararni qoplashi shart. Shu bilan birga, bank shartnomani bir tomonlama rad etish kutilayotgan sanadan 3 kalendar kun oldin mijozga xabarnoma yuborish orqali shartnomani qisman yoki to'liq bajarishni bir tomonlama rad etishga haqli;

d) mijoz o'z hisobvarag'i orqali Markaziy bankning normativ hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va sanksiyalar ro'yxati bilan taqiqlangan sohalarda faoliyat yurituvchi xorijiy davlatlardan kelgan shaxslar foydasiga to'lovlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladi.

11.3. Mijoz tasdiqlaydi va biladiki, mijoz tomonidan sanksiyalar talablarini



bajarilmagan taqdirda, bankni mulkiy/nomulkiy javobgarlikdan ozod qilish majburiyatini oladi.

- bank vakolatli organlar va vakillik banklari (AKSH, Evropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va x.k.) tomonidan salbiy chora-tadbirlar (mablag'larni blokirovka qilish) qo'llanilishi uchun javobgar emas; to'lovni rad etish va x.k.) va mijozga har qanday sanksiyalarning (shu jumladan, tegishli ro'yxatlar, OFAC, EU Sanctions Map i OFSI, SDN i CAPTA ro'yxatlari) amal qilishi, sanksiyalar natijasida bank tomonidan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga qaramay, shartnoma bo'yicha bankning majburiyatlari bajarilmay yoki lozim darajada bajarilmay qolish bilan bog'liq etkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

- bank boshqa mamlakatlar qonunchiligi bilan operatsiyalari cheklangan yoki taqiqlangan banklar va/yoki kontragentlar foydasiga bankda ochilgan hisobvaraq orqali mijoz va/yoki uning mijozlari mablag'larini transchegaraviy o'tkazmalarni amalga oshirmaslik huquqiga ega (lekin bular bilan cheklanmagan holda, tegishli ro'yxatlar, shu jumladan OFAC, EU Sanctions Map i OFSI, SDN i CAPTA ro'yxatlari). Bunda bank tomonidan mijozning topshiriqlari /ko'rsatmalarini bajarmaganligi uchun mijozning o'zi hamkorlari oldida yakka tartibda javobgar bo'ladi.

- Mijozning hisobvarag'iga har qanday sanksiya ro'yxatidagi shaxslardan mablag'lar kelib tushgan taqdirda yoki xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shartnoma va tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha yagona axborot tizimiga (va boshqa davlat tizimlariga) kiritilgan ma'lumotlar o'rtasida tafovutlar aniqlanganda, shuningdek, mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq talablar bajarilmaganligining boshqa holatlari mavjud bo'lganda, bank kelib tushgan pul mablag'larini holatlar aniqlanganigacha qadar mijozning tranzit hisobvarag'iga o'tkazishga va olingan mablag'larni uni yuborgan shaxsga qaytarishga haqli.

Bank mijozning transchegaraviy o'tkazmalarini amalga oshirganda, bank komplaens nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni talab qilishga haqli.

Mijozning topshiriqlari bank tomonidan quyidagi hollarda bajarilmaydi:

- agar topshiriqda qalbakilashtirish, tuzatishlar, qo'shimchalar va dog'lar belgilari mavjud bo'lsa, shu jumladan ko'rsatma ruxsatsiz to'lovlardan himoya qilish tartibini buzgan holda topshirilgan bo'lsa;

- pul o'tkazish yo'riqnomasini tuzish va taqdim etish tartibiga qo'yiladigan talablarga va (yoki) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va (yoki) shartnoma shartlarida belgilangan boshqa talablarga, shu jumladan rekvizitlarni to'liq ko'rsatmaslik; pul oluvchining ma'lumotlarini noto'g'ri ko'rsatish;

- so'ralgan hujjatlar, shu jumladan valyuta nazorati va moliyaviy monitoring subyektini sifatida bank tomonidan talab qilinadigan hujjatlar bank tomonidan belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi;

- amaliyotning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki ushbu shartnomaga zidligi;

- vakolatli organlarning chiqim operatsiyalarini to'xtatib turish to'g'risidagi farmoyishi, taqiq mavjudligi;

- ruxsat etilmagan to'lovni aniqlash, shuningdek benefitsiar foydasiga o'tkazilgan pul mablag'larini olishning noqonuniyligi to'g'risidagi asosli faktlar aniqlangan va tasdiqlangan hollarda;

- tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda;

- agar mijoz xalqaro sanksiyalar talablarini buzsa va/yoki bank mijozning xalqaro sanksiyalar talablarini buzish niyatidan xabardor bo'lsa;
- agar bankda hisobraqamdan xalqaro sanksiyalar talablarini buzgan holda foydalanilmoqda deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo'lsa;
- mijozga va (yoki) uning filiallariga qarshi har qanday mamlakat (masalan, OFAS) yoki xalqaro tashkilot (shu jumladan, FATF va BMT) yurisdiksiyasiga muvofiq kiritilgan sanksiyalar mavjudligi;
- bank mijozning ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarga zid bo'lgan operatsiyalari aniqlangan taqdirda, bunday mablag'larni o'tkazish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslikka haqli. Mijozning pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi topshirig'ini bajarish munosabati bilan bankka jarimalar (boshqa mulkiy/nomulkiy sanksiyalar) qo'yilgan taqdirda, mijoz bankka qo'llanilgan sanksiyalar tufayli bankka etkazilgan har qanday zararni to'lash, shuningdek, bunday jarimalarni qoplash majburiyatini oladi.

## **12. BOSHQA SHARTLAR.**

12.1. Shartnomaning bajarilishi yuzasidan kelishmovchiliklar kelib chiqqan taqdirda, nizo tomonlar o'rtasida o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Muzokaralar natijasida tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda nizolar qonunchilikka muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.

12.2. Mijozning uchinchi shaxslar bilan hisob-kitoblari bo'yicha o'zaro nizolari bankning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

12.3. Mijoz o'zining bank hisobvaraqlarida mavjud pul mablag'larini mustaqil tasarruf etadi. Bank mijozning pul mablag'laridan qay tarzda foydalanishni belgilashga va nazorat qilishga hamda mijoz o'zining pul mablag'larini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqlariga qonunda va mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa cheklashlarni o'rnatishga haqli emas.

12.4. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

12.5. Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish tartibi kelishuvchi tomonlar uchun majburiy bo'lgan Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi.

12.6. Ushbu shartnomaning 7.1.4., 7.1.5., 7.1.6., 7.1.8 bandlarida belgilangan bankka nisbatan .jarima jazo choralari qo'llash sud qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi  
tadbirkorlarning hisob raqamlariga xizmat  
ko'rsatish shartnomasiga 1-ILOVA

## ARIZA

\_\_\_\_\_ nomiga  
(hisobvaraqa egasining nomi)

\_\_\_\_\_  So'm  AQSh dollar  Yevro  Rossiya rubli  Yuan da  
(STIR/JSHSHIR) (valyutaning nomi)

Talab qilib olinguncha  asosiy  ikkilamchi

Mijozlarning boshqa depozitlari bo'yicha majburiyatlari

\_\_\_\_\_ hisobvaraqa  
ochishingizni so'rayman.

202\_\_ y. «\_\_» \_\_\_\_\_  
(to'ldirilgan sana)

\_\_\_\_\_  
(rahbarning imzosi)

\_\_\_\_\_  
(bosh buxgalterning imzosi)

M.O'. (muxr mavjud bo'lganda)

## BANKNING BELGISI

Hisobvaraqa ni ochish hujjatlarini tekshirdim: Mas'ul ijrochi \_\_\_\_\_

(imzo)

hisobvaraqa ochishga ruxsat beraman.

Rahbar \_\_\_\_\_  
(imzo)

Hisobvaraqa 202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da ochildi.

Hisobvaraqa raqami


Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi  
tadbirkorlarning hisob raqamlariga xizmat  
ko'rsatish shartnomasiga 2-ILOVA

## A R I Z A

(SMS-banking xizmatiga ulanish uchun)

---

hisobvaraqlar ochayotgan yuridik shaxsni "firma nomi" yoki yakka tartibdagi tadbirkorning nomi

"SMS-banking" dasturini

---

hisobraqamlariga ulab berishga ruxsat berishingizni so'rayman. Xizmat ko'rsatiladigan telefon  
raqamlari:

+998 (\_\_\_\_) \_\_\_\_\_ .

Ilova: Guvohnoma nusxasi. Pasport nusxasi

Sana: \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

M.O'.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi  
tadbirkorlarning hisob raqamlariga xizmat  
ko'rsatish shartnomasiga 3-ILOVA

## **AT "Aloqabank" da hisobvaraq ochish uchun talab etiladigan HUJJATLAR RO'YXATI**

1. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari bo'lgan rezident yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda dehqon xo'jaliklari tomonidan milliy va chet el valyutasida talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- bank hisobvarag'i ochish to'g'risida ariza;
- imzolar namunalari qo'yilgan ikki dona varaqcha;
- mijoz nomidan to'lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi).

2. Tadbirkorlik faoliyati subyekti bo'lmagan rezident yuridik shaxslar tomonidan milliy va chet el valyutasida talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- bank hisobvarag'i ochish to'g'risida ariza;
- imzolar namunalari qo'yilgan varaqcha;
- tadbirkorlik faoliyati subyekti bo'lmagan rezident yuridik shaxslar tomonidan ta'sis hujjatlari (ta'sis shartnomasi, ustav) hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, shuningdek yuridik shaxs nomidan to'lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi);

- soliq organlarida hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjat (guvohnoma).

3 Rezident yuridik shaxslarning vakolatxonolari va (yoki) filiallariga talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun vakolatxona va filiallar tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- bank hisobvarag'i ochish to'g'risida ariza;
- rezident yuridik shaxslarning vakolatxonolari va (yoki) filiallarining iltimosnomasi (iltimosnomada "Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami" va "Xos raqami" (mijoz kodi) ko'rsatilgan bo'lishi shart);
- rezident yuridik shaxslar, ularning vakolatxonolari va (yoki) filiallari tomonidan imzolar namunalari qo'yilgan varaqcha;
- vakolatxona yoki filialga berilgan vakolatlarni belgilovchi hujjat hamda vakolatxona yoki filial nomidan to'lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi).

4. Faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amalga oshiruvchi norezident yuridik shaxslar (diplomatik vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari, tijorat

faoliyatini amalga oshirmaydigan boshqa xorijiy tashkilotlar vakolatxonalari hamda doimiy muassasalar), tovar-xomashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchilar, uyushgan savdolarida aksiya va korporativ obligatsiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar, shuningdek kripto-birjada kripto-aktivlar savdolari ishtirokchilari bo'lgan norezident yuridik shaxslar (bundan buyon matnda norezident yuridik shaxs deb yuritiladi) talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim qiladilar:

- bank hisobvarag'i ochish to'g'risida ariza;
- agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
- imzolar namunalari qo'yilgan varaqcha;
- norezident yuridik shaxs nomidan to'lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi);
- norezident yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari (ta'sis shartnomasi, ustav) hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning konsullik yoki notarius tomonidan tasdiqlangan nusxasi;
- tovar-xomashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchi norezident yuridik shaxs va birja brokeri o'rtasida brokerlik xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma nusxasi;
- uyushgan savdolarida aksiya va korporativ obligatsiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar — norezident yuridik shaxslar va investitsiya vositachisi o'rtasida brokerlik xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma nusxasi;
- kripto-birjada kripto-aktivlar savdolari ishtirokchilari bo'lgan norezident yuridik shaxs va kripto-birja o'rtasida munosabatlarni o'rnatish to'g'risidagi shartnoma nusxasi.

Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolari ishtirokchilari bo'lgan norezident yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mga nisbatan rasmiy kurslari belgilanadigan chet el valyutalarida bank hisobvaraqlari ochilishi mumkin.

5. Yuridik shaxslar ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat ro'yxatidan o'tgunlariga qadar ta'sischilarning (ishtirokchilarning) dastlabki badallarini kiritish uchun milliy va/yoki chet el valyutasida 29801 — “Mijozlar bilan hisob-kitoblar” hisobvarag'i ta'sischilar (ishtirokchilar) murojaati asosida ochilishi mumkin. Bunda, ta'sischilar (ishtirokchilar) nomidan vakil qilingan shaxs tomonidan bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- bank hisobvarag'i ochish to'g'risida ariza;
- imzolar namunalari qo'yilgan varaqcha;
- ta'sischilar nomidan to'lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (biometrik pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi yoxud yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi).

6. Davlat ro'yxatidan o'tgandan keyin yuridik shaxslarga mazkur Yo'riqnomada belgilangan tartibda asosiy hisobvaraq ochilib, 29801 — “Mijozlar bilan hisob-kitoblar” hisobvarag'idagi mablag'lar ularning topshiriqlari asosida asosiy hisobvaraqa o'tkaziladi va 29801 — “Mijozlar bilan hisob-kitoblar” hisobvarag'i yopiladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi  
tadbirkorlarning hisob raqamlariga xizmat  
ko'rsatish shartnomasiga 5-ILOVA

## ARIZA

---

(yuridik shaxs nomi va rahbar F.I.SH.)

O'z xizmatim orqali (samonos) bank kassasiga tushumlar topshirilganda mazkur tushumlar bank tomonidan o'rab bog'langanligi uchun topshirilgan tushumning \_\_\_% gacha miqdorida bank xizmat haqi undirilishini so'rayman.

STIR: \_\_\_\_\_

H/r \_\_\_\_\_

202\_\_ y. «\_\_» \_\_\_\_\_  
(to'ldirilgan sana)

---

(rahbarning imzosi)

---

(bosh buxgalterning imzosi)

M.O'. (muhr mavjud bo'lganda)

AT "Aloqabank"da Yuridik shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga bank hisobvaraqlarini ochish va ularga masofadan turib (distantcion) elektron bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta shartnomasiga 3-ILOVA

## **YURIDIK SHAXS ISHCHILARIGA OYLIK ISH HAQI LOYIHASI BO'YICHA BANK KARTASI BERISH VA KORPORATIV BANK KARTASI CHIQARISH HAMDA TO'LOV TERMINALLARI BERISH BO'YICHA SHARTNOMA**

### **I. ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR**

1.1. Mazkur Shartnomada quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi.

**Bank kartasi** - o'z egasiga bank hisobvarag'i orqali bank kartasining amal qilish muddati doirasida, naqd pulsiz shaklda hisob-kitoblarni amalga oshirish va naqd pul olish imkoniyatlarini beruvchi to'lov kartasi.

**Oylik ish haqi loyihasi** – tashkilot xodimlariga oylik ish haqlarini olishlari va undan foydalanishlari uchun Bank kartalarini chiqarish.

**Korporativ bank kartasi** – Bank tomonidan yuridik shaxsga ochilgan karta hisobvarag'idan ushbu shaxsga karta hisobvarag'ida hisobga olingan pul mablag'laridan foydalanish huquqini beruvchi bank kartasi.

**Xalqaro to'lov kartalari** – Xalqaro to'lov tizimi a'zolari tomonidan muomalaga chiqarilgan Bank kartalari.

**Savdo terminali** - bu Bank tomonidan belgilangan tartibda Saqlovchi Kartasi orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun elektron-mexanik moslama.

**SXKK** – O'zbekiston Respublikasi hududida ham, undan tashqarida ham tovarlarga va/yoki xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishda qabul qiluvchi savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi.

**Tranzaksiya** – Mijoz tomonidan Bank kartasi yordamida amalga oshiriluvchi har qanday to'lov yoki naqd pul olish.

**To'lovni qaytarish** - Bank kartasini to'ldirishga qaratilgan, savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi tomonidan qaytarilgan mablag'.

**Bankning korporativ sayti** –[www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz) manzilida joylashgan veb sayti.

**Saqlovchi** – jismoniy shaxs – ish haqini olish va undan foydalanish uchun Saqlovchiga Bank kartasini taqdim etadigan tashkilotning xodimi.

**Bank kartasining blokirovkasi** -xalqaro va mahalliy to'lov tizimining qoidalariga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida hamda bank tomonidan tasdiqlangan "Bank kartalaridan foydalanish qoidalari"ga muvofiq, Bank kartalarini amal qilishini to'xtatish yoki uni bekor qilish bo'yicha bank tomonidan ko'rilgan chora.

**To'lov tizimi** - tovar, ish (xizmat) uchun naqd pulsiz shaklda to'lovlarni amalga oshirish hamda naqd pul yechish imkonini beruvchi mahalliy va xalqaro to'lovlarni amalga



o'shinish huquqiga ega bo'lgan tizim (Masalan: Uzcard, HUMO, VISA, UnionPay va boshqa).

**Minimal balans qoldig'i (Sug'urta depoziti)** - Bank karta hisobvarag'ida saqlanishi majburiy bo'lgan pul mablag'larining minimal qoldig'i.

## **II. SHARTNOMANING MAZMUNI**

2.1. Shartnomani akseptlagan Mijoz ishchilariga oylik ish haqi loyihasi bo'yicha Bank kartasi berish va Korporativ bank kartasi chiqarish hamda To'lov terminallari berish (milliy valyutada va chet el valyutasida) bo'yicha, yuridik shaxs tranzit hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar hisoblanadi.

## **III. SHARTNOMANING UMUMIY SHARTLARI**

3.1. Ushbu Shartnomani akseptlovchi barcha shaxslar (quyida matnda «Mijoz» deb yuritiladi):

a) oylik ish haqi loyihasi bo'yicha Bank kartasi chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishdan manfaatdor;

b) Bank kartasini saqlovchilariga xizmat ko'rsatish uchun To'lov terminallarini olishdan manfaatdor;

d) korporativ kartalar orqali tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki undan tashqaridagi xizmat safarlari xarajatlarini to'lash uchun korporativ kartalarni chiqarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarini olishdan manfaatdor;

e) bank tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar shartlari bilan tanishib chiqqan;

f) bank xizmatlaridan o'zi haqidagi ma'lumotlarni oshkor etmasdan foydalanish mumkin emasligini tushunadi va bankka kerakli ma'lumotlarni taqdim etadi;

g) bankdan yozma hujjatlar mijozga qog'oz shaklida yoki elektron shaklda Shaxsiy kabinetda taqdim etilishi mumkinligini tushunadi va hujjatlarni olishning bunday shaklini o'zi uchun mumkin deb hisoblaydi;

h) Oferta bilan tanishib, ofertada taklif etilgan barcha shartlarni qabul qilganligini bildiradi.

3.2. Ushbu oferta bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar yuzasidan 71-230-77-77 telefoni orqali, info@aloqabank.uz elektron pochta manzili orqali bog'lanish mumkin.

## **IV. BANK XIZMATLARINI TAQDIM ETISH SHARTLARI**

4.1. Foydalanuvchi tomonidan oylik ish haqi loyihasi bo'yicha Bank kartasini ochish yuzasidan Bankka 1-ilovaga asosan ariza taqdim qilingan kundan so'ng, (korxonada xodimlaridan 2-ilovaga muvofiq arizasi asosida) vaqtincha foydalanish uchun Bank kartalarining hisobvarag'i hamda 3 (uch) kunlik muddatda Bank kartasi ochiladi.

4.2. Bank karta hisobvarag'i ochilib, Bank kartasi chiqarilganidan keyin, Bank kartasi foydalanuvchiga ishonchnoma asosida beriladi yoki kuryerlik xizmati orqali yoki korxonada ishchisining shaxsan o'ziga shaxsi identifikatsiya qilinganidan keyin topshiriladi.

4.3. Bank kartalari to'lov tizimlari qoidalariga muvofiq ravishda taqdim etiladi.

4.4. Bank kartasi kuryerlik xizmati orqali yetkazib berish, qo'shimcha haq evaziga amalga oshiriladi. Qo'shimcha haqning miqdori Bank tariflarida belgilanadi va u Bankning maxsus saytlarida joylashtirib boriladi.

4.5. Korxonada xodimlarning har oylik maoshlarini va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni Bank kartalariga o'tkazish tartibiga binoan pulni o'tkazish to'lov topshiriqnomasi va reyestr elektron shaklda, shuningdek qog'ozda asl nusxani, vakolatli shaxs tomonidan imzolangan va kompaniyaning muhri bilan tasdiqlangan holda berish orqali amalga oshiriladi.

4.6. Korporativ karta 1-ildavda ko'rsatilgan shaxs nomiga chiqariladi.

4.7. Yuridik shaxslarga, Korporativ bank kartasi ularning ishonchli vakili tomonidan shaxsan shaxsini tasdiqlovchi hujjat hamda unga berilgan ishonchnoma taqdim qilinganda, yuridik shaxslarga taqdim qilingan Bank kartalarini qayd qilish kitobida qayd qilingandan so'ng beriladi.

4.8. Korporativ bank kartasining hisobvarag'ini to'ldirish karta hisobvarag'ini ochgan yuridik shaxsning to'lov topshiriqnomasiga asosan uning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan amalga oshiriladi.

4.9. Korporativ bank kartasiga uning saqlovchiga to'lanadigan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, nafaqalar, nafaqalar, stipendiyalar va dividendlarni o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, Korporativ bank kartalari vositasida naqd pul berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4.10. Korporativ bank kartasi hisobvarag'idagi sarflanmay qolgan mablag'larni asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga qaytarish to'lov topshiriqnomasi bilan amalga oshiriladi.

4.11. Bank kartalari mazkur Shartnomada, to'lov tizimlarining qoidalarida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va bankning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda Bank tomonidan yoki vakolatli organ tomonidan bloklanishi mumkin.

4.12. Bank kartasi foydalanuvchi tomonidan uning yozma murojaati, bankning Call Centre orqali yoki masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda bloklanishi mumkin.

4.13. To'lov tizimlarining qoidalariga binoan Bank karta hisobvarag'ida saqlanishi majburiy bo'lgan pul mablag'larining minimal qoldig'i shakllantiriladi.

4.14. Foydalanuvchi Bank kartasidan foydalanish qoidalari va yo'riqnomalariga amal qiladi.

4.15. Xalqaro to'lov kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalarda Foydalanuvchi tomonidan yozma ravishda e'tiroz 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida qabul qilinadi.

4.16. Xalqaro to'lov karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bilan bog'liq nizolar, shu to'lov tizimi qoidalari asosida ko'rib chiqiladi.

4.17. Bank kartalari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishda "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat" qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

4.18. Bank kartasi hisobvarag'idan chiqim qilingan e'tirozli operatsiyalar bo'yicha foydalanuvchi Bankka yozma e'tiroznoma arizasini taqdim qiladi va ariza to'lov tizimlarining «Operatsiyalar bo'yicha munozaralarni hal qilish» qoidalari bo'yicha belgilangan muddatlarda ko'rib chiqadi.

4.19. Foydalanuvchi savdo va xizmat ko'rsatish korxonasiga o'rnatish uchun To'lov terminallarini ajratish bo'yicha bankka 1-ilovaga asosan yozma yoki elektron shaklda ariza taqdim qilganidan so'ng, 5 (besh) kun ichida To'lov terminallari ajratiladi.

4.20. To'lov terminallari ilovaga muvofiq Foydalanuvchilarga Bank tariflariga asosan ijaraga berilishi mumkin.

4.21. To'lov terminalining ijaraga berish muddati ushbu yilning oxirgi kuniga qadar davom etadi. Agar tomonlar shartnomani bekor qilmasalar, ijara muddati avtomatik ravishda bir yilga uzaytiriladi.

4.22. Ijaraga olingan To'lov terminallari uchun to'lovlar har oyning 5 sanasiga qadar, ishlatilgan oy uchun to'lanadi.

4.23. To'lov terminallarining foydalanish bilan bog'liq amaliyotlari Foydalanuvchi tomonidan to'lanadi.

4.24. Foydalanuvchi to'lov terminallari bo'yicha majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijara), ijaraga olingan mol-mulkni tekin foydalanish uchun berishga, garovga qo'yishga va ustav fondiga hissa sifatida topshirishga haqli emas.

4.25. Foydalanuvchi ijaraga olingan To'lov terminalini sotib olish istagini bildirsa, ijara uchun to'langan mablag'lar hisobga olinmaydi.

4.26. To'lov terminallari uchun (to'lov terminallarining maxsus qog'ozi) sarflanadigan qog'ozlar tashkilot tomonidan mustaqil olinadi.

4.27. Bank Foydalanuvchi yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) huquqiga ega.

## **V. TARAFLAR O'RTASIDA HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI**

5.1. Foydalanuvchi bankning barcha ko'rsatilgan xizmat haqini bank tarifi bo'yicha to'lashga rozilik beradi (<https://aloqabank.uz/uz/corporate/tariffs> ).

5.2. Bank tomonidan mazkur Ofertaga asosan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar akseptsiz ravishda hisobdan chiqariladi. Foydalanuvchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni boshqa mavjud mablag'lardan naqd yoki naqd pulsiz shaklda ham amalga oshirishi mumkin.

5.3. Bank Tariflarni o'zgartirish huquqiga ega bo'lib, bunda bank Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar haqida, ular kuchga kirishidan 10 kun oldin, xizmat ko'rsatish punktlarida, shuningdek Bankning Korporativ veb sayti orqali xabardor qiladi.

5.4. Foydalanuvchi tomonidan 4.21- bandga asosan to'lov amalga oshirilmasa, Bank ijara to'lovini mustaqil akseptsiz shaklda Foydalanuvchi hisob raqamidan yechib oladi.

## VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

### 6.1. Foydalanuvchining javobgarligi:

- a) Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligiga;
- b) Oylik ish haqi kartasi va Korporativ bank kartasi bo'yicha karta hisobvarag'idan noto'g'ri foydalanishi yoki noqonuniy harakatlari natijasida Bankka yetkazilgan zararlarni to'liq qoplanishiga;
- d) Oylik ish haqi kartasi va Korporativ bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida bankka yozma ariza va/yoki telefon orqali xabar bermasligi oqibatida, Bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarga;
- e) Korporativ bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi uchun javobgarlik Foydalanuvchi zimmasida bo'ladi;
- f) To'lov terminallari o'rnatilgan SXKK Bank kartalaridan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilmasa;
- g) To'lov terminallarini faqatgina belgilangan maqsadlarda ishlatish;
- h) To'lov terminallari yaroqsiz holga keltirilganda, buzilgan va qaytarilmagan holatlarda;
- i) Bank tomonidan noqonuniy (shubhali) operatsiyalar aniqlanganda, Karta saqlovchi haqida so'ralganda tegishli ma'lumot va hujjatlarni taqdim qilish;
- j) Bank tomonidan so'ralgan ma'lumotlarni kechiktirmasdan taqdim etish;
- k) Bankning pochta (yuridik) manzili, bank rekvizitlari, shuningdek ushbu Ofertaga muvofiq boshqa o'zgarishlar to'g'risida barcha o'zgarishlar to'g'risida darhol va yozma ravishda xabardor qilish.

Foydalanuvchi yuqoridagi ko'rsatilgan bandlarni buzgan holatda BXMning 20 baravari miqdorigacha jarima to'laydi. Foydalanuvchi hisobvarag'idan jarima va boshqa to'lovlar akseptsiz ravishda yechib olinadi.

l) Bank kartasi hisobvarag'i bo'yicha noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlar uchun, bunda, noto'g'ri yoki xato bajarilgan to'lovlarni bekor qilinishi bilan Bankning javobgarligi cheklanadi. To'lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari bank tomonidan buzilgan taqdirda, u foydalanuvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lovning 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lanishida Bank javobgar hisoblanadi.

m) Mazkur shartnoma asosida bank o'z huquq va majburiyatlarini bajarishi munosabati yuzasidan so'ralgan ma'lumotlarning Foydalanuvchi tomonidan real vaqt rejimida taqdim etilmasligi yoki yolg'on ma'lumot berilganligi natijasida bankka yetkazilgan har qanday zarar uchun Foydalanuvchi javobgar hisoblanadi.

### 6.2. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

- a) Xalqaro va mahalliy to'lov tizimida, shuningdek banklararo elektron to'lov tizimlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;
- b) Uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartalariga xizmat ko'rsatish rad etilganda;
- d) Bank kartasi vositasida xarid qilingan tovar, ish (xizmat) sifatiga;

e) Foydalanuvchi manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan darajadagi uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartasi orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarga o'rnatilgan limitlar, cheklovlar va boshqa to'lovlar;

f) Foydalanuvchi tomonidan Oferta shartlari buzilganda yoki foydalanuvchi tomonidan noqonuniy harakatlar sodir qilingan holda;

g) Bank kartasi egasining ruxsatisiz yoki Bank kartasi yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida bankka yozma ariza taqdim qilinishidan oldin Bank kartasi vositasida bajarilgan operatsiyalar.

6.3. Yengib bo'lmaydigan kuch vujudga kelganda hamda shu kabi mavjud bo'lgan boshqa holatlarda taraflar majburiyatlardan qisman yoki to'liq ozod etiladi. Bunday favqulodda hodisalarga quyidagilar kiradi: suv toshqini, yong'inlar, zilzila, portlash, to'fonlar, tuproqning cho'kishi, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy ofatlar, davlat organlarining qarorlari, shuningdek urushlar yoki urush harakatlari.

6.4. Foydalanuvchi yoki u bilan munosabatga kirishgan shaxs xatti-harakatlari yuzasidan tegishli tashkilotlar tomonidan Foydalanuvchiga yoki u bilan munosabatga kirishgan shaxsga qo'llanilgan har qanday choralar, jumladan sanksiyalar (tegishli ro'yxatlar, OFAC, Yevropa Ittifoqining Mar va OFSI, SDN va CARTA sanksiyalari) shuningdek, sanksiyalar oqibatida vujudga keladigan har qanday turdagi zararlar uchun bank o'z majburiyatlarini bajarganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan qat'iy nazar javobgar hisoblanmaydi.

## **VII. MAXFIYLIK**

7.1. Foydalanuvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'ziga doir ma'lumotlarni kredit byurosiga, garov reyestriga, skoring kompaniyalariga, mobil aloqa operatorlariga va zarur bo'lganda, sug'urta kompaniyalariga berishga, shuningdek xizmatlarni amalga oshirish va sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarga ishlov berish, foydalanish va uchinchi shaxsga taqdim etishga rozilik bildiradi.

7.2. Bank barcha kerakli ma'lumotni ushbu Oferta doirasida, o'z majburiyatlarni bajarish uchun, uchinchi shaxslarga berish huquqiga ega bo'ladi.

7.3. Bank talab qilish huquqidan uchinchi shaxs foydasiga voz kechishi holatida, ushbu Oferta bo'yicha barcha ma'lumotni taqdim etishi mumkin.

## **VIII. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALARNI KIRITISH IMKONIYATI VA TARTIBI**

8.1. Bank, Shartnomaning shartlariga o'zgartirish kiritish va bu haqida Foydalanuvchini Bankning korporativ veb sayti orqali xabardor qilish huquqiga ega bo'ladi.

8.3. Foydalanuvchi Ofertaga o'zgartirish kiritishga rozi bo'lmagan holda, Foydalanuvchi o'zining rozi bo'lmasligi haqida xabarni yuborishi lozim.

8.4. Foydalanuvchi Shartnomaga o'zgartirish kiritishga rozi emasligi haqidagi bankka murojaat qilgandan keyin, Taraflar qisqa muddatda o'zaro hisob-kitob qilishi shart.

## **IX. BITIMDAN VOZ KECHISH SHARTLARI**

9.1. Bank bir tarafdama tartibda biror-bir majburiyatsiz Ofertani bajarishdan voz kechish huquqiga ega.

9.2. Bank foydalanuvchiga 12.2.-bandiga asosan xabar yuborish orqali xizmat ko'rsatishdan voz kechish haqida bildiradi.

9.3. Foydalanuvchi Shartnoma shartlarini bajarishdan bir tarafdama voz kechish haqidagi xabariga javob bermagan holda, foydalanuvchi bir tarafdama voz kechish haqidagi xabarini qabul qilgan, deb hisoblanadi.

9.4. Shartnomani bajarishdan bir tarafdama voz kechish haqidagi xabarni yuborgandan keyin 10 kun o'tganidan so'ng, Shartnoma bankning biror-bir majburiyatlarisiz bekor qilingan deb hisoblanadi.

9.5. Foydalanuvchi Shartnoma bo'yicha barcha mablag'lar, shu jumladan penya, sarflar, xarajatlar va boshqa qarzdorliklarni to'liq to'lab, Shartnomani bajarishdan bir tomonlama tartibda voz kechishi mumkin.

9.6. Foydalanuvchi Shartnomani bir tarafdama tartibda bekor qilishni istagan holda, u Bankka bu haqda 12.2.-bandiga asosan xabarni yuboradi.

9.7. Shartnoma Bank tomonidan bir tarafdama tartibda istalgan paytda, biror-bir majburiyatsiz bekor qilinishi mumkin.

9.8. Shartnomani bekor qilmoqchi bo'lgan Taraf boshqa Tarafga bekor qilish sanasidan avval 10 kun ichida bu haqdagi xabarni yuboradi.

9.9. Bank amalga oshirayotgan operatsiyalar Foydalanuvchining anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish huquqiga ega.

## **X. OFERTANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI BEKOR QILISH TARTIBI**

10.1. Mazkur Shartnoma shartlari foydalanuvchi tomonidan akseptlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi hamda Bank xizmati ko'rsatilgunga qadar amalda bo'ladi.

10.2. Shartnoma tarafdardan birining tashabbusi bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

10.3. Ushbu Shartnoma foydalanuvchining talabiga binoan istalgan vaqtda bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha to'lovlar amalga oshirganidan keyin bekor qilinishi mumkin.

10.4. Foydalanuvchining tashabbusi bilan Shartnoma bekor qilinganida, shartnoma doirasida muomalaga chiqarilgan Bank kartasi va To'lov terminali Bankdan ijaraga olingan bo'lsa, qaytarilishi lozim.

10.5. Bank tomonidan Foydalanuvchining shubhali (noqonuniy) operatsiyalari aniqlangan taqdirda, Bank ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qiladi yoki vaqtinchalik Foydalanuvchi tomonidan o'tkazilgan operatsiya qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish xati olinmaguncha to'xtatiladi.

10.6. Shartnoma ni bekor qilinishi, Bank karta hisobvarag'ini va To'lov terminallari tranzit hisobvaraqlarini yopish uchun asos bo'ladi.

10.7. Shartnomaning bekor qilinishi Foydalanuvchini o'z majburiyatlarini bajarishdan va Shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

10.8. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

## **XI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

11.1. Shartnoma bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, imkoni boricha, Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

11.2. Muzokaralar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Bank yoki Foydalanuvchi tomonidan yozma ravishda nizoni nimadan iboratligini ko'rsatgan holda 12.2. bandga binoan xabar yuboradi;

b) Xabarni olgan taraf murojaatni o'rganib chiqib, uni olgan kundan boshlab 1 oy ichida javob yo'llaydi.

11.3. Murojaat qilgan tomon olgan javobidan norozi bo'lsa, muzokara o'tkazishni taklif etishi lozim, muzokara o'tkazish taklifini olgan taraf 10 kun ichida qayerda, soat nechada muzokaraga yig'ilishga tayyorligi haqida javob yo'llashi lozim.

11.4. Agar Taraflar kelisha olmasa, nizo Bank yoki uning tarkibiy tuzilmasi joylashgan hudud tegishli sudida hal etiladi.

## **XII. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI**

12.1. Ushbu Shartnoma doirasida Taraflarga barcha xabarnomalar Shartnoma boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, taraflar xabar berish yoki xabar yuborish uchun manzil yoki telefon raqami, deb ko'rsatgan manzilga yoki telefon raqamiga (quyida matnda «Xabar berish uchun manzil») yuboriladi.

12.2. Taraflar Xabar berish uchun manzilni xabarlar borligi yuzasidan muntazam tekshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

12.3. Tekshirmasligi holatida, ular, ushbu xabar ularga ma'lum bo'lmagani haqida bildirish huquqidan mahrum etishini tasdiqlaydi.

12.4. Foydalanuvchi o'zining yangi Xabar berish uchun manzilini bildirgunga qadar eski Xabar berish uchun manziliga xabarlar yuboriladi.

Yuridik shaxs ishchilariga oylik ish haqi loyihasi  
bo'yicha bank kartasi berish va korporativ bank kartasi  
chiqarish hamda to'lov terminalari berish  
bo'yicha shartnomaga 1-ilova

## ARIZA

(oylik ish haqi loyihasi bo'yicha Bank kartasini ochish yuzasidan)

\_\_\_\_\_dan

(tashkilot nomi)

Sizdan (✓ ) oylik ish haqi loyihasi bo'yicha xodimlarimga bank kartasi chiqarishingizni;  
(✓ ) korporativ bank kartasi ochishingizni;  
(✓ ) tashkilotimizga \_\_\_\_\_ dona to'lov terminali berish bo'yicha bank xizmatlarini ko'rsatishingizni so'rayman.

Ushbu ariza bilan quyida ko'rsatilgan xodim nomiga korporativ bank kartasi chiqarishingizni (korporativ bank kartasi saqlovchisi pasport nusxasi ilova qilinadi) so'raymiz. Qo'yida keltirilgan ma'lumotlarni haqqoniyligini tasdiqlaymiz.

- |   |  |
|---|--|
| <input type="checkbox"/> milliy valyutada | <input type="checkbox"/> AQSH dollarida                        |
| <input type="checkbox"/> Uzcard           | <input type="checkbox"/> Visa Korporativ                       |
| <input type="checkbox"/> Kobeydj          | <input type="checkbox"/> Visa YaTT                             |
| <input type="checkbox"/> HUMO             | <input type="checkbox"/> UPI Business Classic (YaTT)           |
| <input type="checkbox"/> MIR              | <input type="checkbox"/> UPI Corporate Gold (yuridik shaxslar) |
| <input type="checkbox"/> _____            | <input type="checkbox"/>                                       |

KORPORATIV BANK KARTA SAQLOVCHISI HAQIDA MA'LUMOT												
F.I.Sh:												
Pasport ma'lumotlari:												
Tug'ilgan sanasi:												
Manzili:												
Lavozimi:												
Mobil telefon raqami:			+	9	9	8	(				)	
Ish telefon raqami:			+	9	9	8	(				)	
Maxfiy so'z:												
Bankka telefon orqali murojaat qilganingizda, shaxsingizni tasdiqlash uchun ishlatiladigan maxfiy so'z.												

Kartani qayta chiqarish sababi\*  shikastlangan / yo'qotilgan  muddati tugagan  boshqa: \_\_\_\_\_

Korporativ bank kartasining raqami\*\* - \_\_\_\_\_  
bundan tashqari, sizdan so'rayman \*\*:  ulanish  o'chirish Quyidagi qo'shimcha xizmatlar:  
 xalqaro bank kartasiga SMS-Banking  Internet orqali to'lovlar

To'lov terminali turi: Uzcard  HUMO  Visa   
O'rnatish tartibi:  bank xizmati asosida  bankdan sotib olish  
 shaxsiy terminal (terminal ma'lumotnomasi taqdim qilinadi)

TO'LOV TERMINALINING O'RNATILISHI BO'YICHA MA'LUMOT												
Terminaldan foydalanuvchi F.I.Sh:												
Pasport ma'lumotlari:												
Terminal o'rnatiladigan manzil:												
Faoliyat turi:												
Telefon raqami:			+	9	9	8	(				)	

Mazkur arizani to'ldirish vaqtida Ommaviy oferta shartnomasi va Bank tarifi bilan  
 banking veb-saytidan  bank stendidan  bank xodimlaridan  
Tanishdim, shuningdek unda ko'rsatilgan oylik ish haqi loyihasi bo'yicha bank kartalari berilishi va korporativ bank kartasini chiqarish hamda to'lov terminallarini berish bo'yicha bank xizmatlarini ko'rsatish shartlari bilan tanishib, shartnomani qabul qildim. Shu munosabat bilan men ommaviy



oferta shartnoma shartlariga muvofiq xizmat ko'rsatilishiga rozilik beraman.

Aksept qabul qilinganligidan xabardor etildim.

Tashkilot rahbarining F.I.Sh: \_\_\_\_\_

Sana: «\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ y. Rahbarning imzosi \_\_\_\_\_ M.O'.

#### **BANK BELGILARI**

Ariza qabul qilingan sana: \_\_\_\_\_ Qabul qilgan xodimning imzosi: \_\_\_\_\_

\* - korporativ bank kartasini qayta chiqarish vaqtida to'ldirish shart

\*\* - qo'shimcha xizmatlarni ulash vaqtida to'ldirish shart

Yuridik shaxs ishchilariga oylik ish haqi loyihasi  
bo'yicha bank kartasi berish va korporativ bank kartasi  
chiqarish hamda to'lov terminallari berish  
bo'yicha shartnomaga 1-ilova

## **ARIZA**

(oylik ish haqi loyihasi bo'yicha Bank kartasini ochish yuzasidan)

AT "Aloqabank"da Yuridik shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga bank hisobvaraqlarini ochish va ularga masofadan turib (distantcion) elektron bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta shartnomasiga 4-ILOVA

## **“Internet-banking” dasturiy vositasidan foydalangan holda hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatilishi yuzasidan**

### **SHARTNOMA**

#### **I.SHARTNOMADA QO'LLANILADIGAN ATAMALAR**

**“Internet-banking” dasturiy vositasi (keyingi o'rinlarda-dasturiy vosita)** – Mijozga xizmatlar taqdim etish maqsadida Mijoz va Bank hududida o'rnatiladigan va Mijoz va Bank tomonidan mos keluvchi qismlarda, shuningdek Mijoz va Bank tomonidan o'tkaziladigan tashkiliy choralarda kelishuv asosida qo'llanadigan dasturiy-apparat vositalari uyg'unligi. Me'yoriy-qonunchilik bazasida o'zgarishlar tufayli, shuningdek Mijoz ehtiyojlari to'liq qondirilishini ta'minlash uchun dasturiy vosita Bank tomonidan yangilanishi va o'zgartirilishi mumkin. Dasturiy vositaning yangilanishi Mijoz ishtirokisiz, lekin u xabardor qilingan holda avtomat tarzda sodir bo'ladi. Istalgan vaqtda Mijoz dasturiy vositaning so'ngi versiyasi bilan ishlaydi.

**Axborot tizimi** - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

**“Elektron hujjat”** - Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir.

**“Elektron raqamli imzo” (ERI)** – bu Mijoz tomonidan kriptografik o'zgartirishlar yordamida shakllantirilgan axborot tizimida amalga oshirilgan va elektron hujjatga qat'iy ravishda taqqoslanadigan hamda elektron hujjatni autentifikatsiyalash (mualliflik va yaxlitlikni tasdiqlash) uchun foydalaniladigan, bayt yig'indisi ko'rinishidagi elektron hujjatning rekviziti.

**“Imzo namunalari kartočkasi”** - Mijoz tomonidan bank hisobvaraқ shartnomasiga muvofiq Bangga taqdim etiladigan Mijozning hisob-kitoblarini imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning imzo namunalari va muhri tushirilgan kartočka.

#### **II. SHARTNOMANING UMUMIY SHARTLARI**

2.1 Mazkur shartnoma shartlari Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan hisobvaraқ shartnoma shartlariga muvofiq kelmaganda hisobvaraқ shartnoma shartlari qo'llaniladi.

2.2 Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan hisobvaraқ shartnomasida ko'zda tutilmagan shartlar mazkur shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu shartlar hisobvaraқ shartnomasiga ham qo'llaniladi.

2.3 Mijoz mazkur dasturiy vositadan faqat bank hisobvaraқ'i shartnomasi bo'yicha Bank Mijozning hisobvaraқ'iga tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, Mijozning hisobvaraқdan tegishli summalarini o'tkazish va to'lash hamda hisobvaraқ bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi farmoyishlarini (elektron to'lov hujjatini) berish uchun foydalaniladi.

2.4 Bank Mijozni dasturiy vositaga ulanish, undan foydalanish va unda ishlash

bo'yicha maslahatlar berib, Mijozni dasturiy vositada ro'yxatga oladi.

2.5 Dasturiy vosita Bank mutaxassislari yoki Mijozning axborot texnologiyalar sohasida zarur tajribaga ega bo'lgan mutaxassislikka ega bo'lsa, o'zi o'rnatishi mumkin. Dasturiy vositani o'rnatish bo'yicha qo'llanma bank rasmiy saytida joylashtirilgan.

2.6 Mijoz bangga 2-ilovaga asosan ariza taqdim etgandan so'ng Bank Mijozni ro'yxatdan o'tkazadi va Dasturiy vosita o'rnatiladi.

2.7 Bank axborot tizimini qo'llagan holda mazkur shartnoma bo'yicha Mijozga berilgan dasturiy vosita orqali Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan hisobvaraqa shartnomasidagi xizmatlarni ko'rsatadi.

2.8 Mijozning hisobvaraqlariga axborot tizimidan foydalangan holda xizmat ko'rsatish, ularni ochish uchun asos bo'lgan bank hisobvaragi shartnomasi va uning shartlariga asosan amalga oshiriladi.

2.9 Dasturiy vositaga ulanish va undan foydalanish axborot tizimini qo'llagan holda amalga oshiriladi va qaysi axborot tizimiga ulanish va qanday ulanishi mazkur Shartnomaning predmeti bo'lib hisoblanmaydi.

2.10 Dasturiy vositadan foydalanish uchun Bank tomonidan Mijozga Elektron raqamli imzo (matnda bunda buyon "ERI" deb yuritiladi) 3-ilovaga asosan taqdim etiladi.

2.11 Bank tomonidan yaratilgan ERI kaliti tashqi saqlovchi vositalarga yozilib Mijozga vaqtinchalik foydalanishga beriladi.

2.12 Taraflar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan Elektron Raqamli Imzo usulini e'tirof etadilar (tan oladilar).

2.13 Shartnoma obyektini but saqlanishi va uni uchinchi shaxsga berilishi hamda belgilangan tartibda saqlamaganligi natijasida Mijozning ERI soxtalashtirilishiga Mijoz javobgardir.

2.14 Mazkur shartnoma doirasida yaratilgan barcha elektron hujjat qog'oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

2.15 Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborotlar elektron hujjat ekanligi ko'rsatilgan bo'lib, Mijozning ERI bilan tasdiqlanmagan hujjatlari elektron hujjat sifatida tan olinmaydi va ular yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

2.16 Mijozning ERI bilan tasdiqlanmagan hujjatlar Bank tomonidan ko'rib chiqilmaydi hamda ijro etilmaydi.

2.17 Mazkur shartnoma doirasida yaratilgan barcha elektron hujjatlar yuzasidan nizo yuzaga kelganida ushbu shartnomaning 1-sonli ilovasidagi "Nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda texnik ekspertiza o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq olingan ma'lumotlar taraflar o'rtasidagi nizoli masalalarni hal etish uchun dalil bo'lib xizmat qiladigan ma'lumotlar ekanligini taraflar e'tirof etadilar.

2.18 ERI mavjud bo'lmagan elektron hujjatlar nizoli masalalar mavjud bo'lgan taqdirda, nizoli vaziyatni hal etishda dalil bo'lib hisoblanmaydi.

2.19 Taraflar axborot tizimi bilan ishlashda vaqtning yagona shkalasi sifatida Toshkent vaqt mintaqasini e'tirof etadilar.

2.20 Bank dasturiy vositalaridagi vaqt axborot tizimi foydalanuvchilari uchun nazorat vaqti bo'lib hisoblanadi.

2.21 Bank Mijozning e-mail, pochta aloqasi yoki telefon orqali berilgan ko'rsatmasiga ko'ra barcha ma'lumotlar to'liq taqdim etilgan taqdirda axborot tizimida Shartnoma obyektidan foydalanishni vaqtincha to'xtatib qo'yadi.

2.22 Bank Mijoz kaliti o'z maqomini yo'qotganligi yuzasidan shubhalangan taqdirda o'z ixtiyoriga ko'ra Mijozni xabardor qilmagan holda Mijozning ERI kalitini blokirovka qilish

va Mijozdan ERI kalitlari juftligini o'zgartirishni talab qilishga haqli.

2.23 Bank Mijoz tomonidan bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida undan yozma tushuntirish olishga hamda ushbu tushuntirish olingunga qadar ushbu shartnoma va hisobvaraqlar shartnomasi bo'yicha xizmatlari ko'rsatishni to'xtatib turishi mumkin.

2.24 Mijozning noqonuniy (shubhali) operatsiyalar amalga oshirilganligi haqida gumonlar mavjud bo'lganda Mijoz yoki uning vakillari tomonidan operatsiyalar amalga oshirilayotganligini, pul hisob-kitob hujjatlarining rasmiylashtirilishini, ularning mijozning vakolatli shaxslari (rahbari, bosh hisobchisi) tomonidan imzolanib tasdiqlanishini, ushbu hujjatlar bo'yicha o'tkazmalar faqat aynan elektron imzolash huquqi mavjud bo'lgan mijoz vakili tomonidan elektron imzolash orqali tasdiqlangandan keyin amalga oshirilishini tekshirish maqsadda mijozning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki masofaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada belgilangan manzil bo'yicha o'rganishi mumkin.

2.25 Mijoz mustaqil ravishda talab etilgan ma'lumotlarni ko'rsatgan holda maxsus "Ro'yxatga olish" moduli orqali dasturiy vositada ro'yxatdan o'tishi, Bank Mijozning ERI kalitlarini hosil qilishi va Mijozning ERI kalit sertifikatini oladi (chiqariladi).

2.26 Mijoz elektron hujjatlarni "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom hamda amaldagi talablariga muvofiq to'ldiradi.

2.27 Mijoz mazkur shartnomaning 8-bo'limida belgilab qo'yilgan elektron hujjatlar bilan almashinish tartibiga rioya etadi.

2.28 Mijoz axborot tizimida foydalaniladigan Mijozning ERI kalitlarining va parollarini maxfiylikni sir saqlaydi, ularni uchinchi shaxslarga bermaydi.

2.29 Mijoz u vakolat bermagan shaxslar tomonidan dasturiy vositaga ruxsatsiz kirish urinishi aniqlanganda Bangga darhol xabar beradi.

2.30 Mijoz kalitlari o'z maqomini yo'qotgan taqdirda darhol maqomini yo'qotgan kalitlarni blokirovka qilish choralarini ko'rish uchun Bangga xabar berishi va qisqa muddatlarda Bangga ushbu Shartnomaning 2-sonli Ilovasiga muvofiq o'z kalitlarini blokirovka qilish to'g'risida yozma ariza yuboradi.

2.31 Mijoz o'z xohishiga ko'ra yangi ERI kalitlarini hosil qilish va ularni Bankda ro'yxatdan o'tkazishga haqli.

2.32 Hisobvaraqlar shartnomasi yoki mazkur shartnoma bekor qilinganda Mijoz Bankdan olgan barcha shartnoma obyektini, shu jumladan ERI yozilgan tashqi saqlovchi vositasi Bangga topshiradi.

2.33 Hisobvaraqlar shartnomasi yoki mazkur shartnoma bekor qilinganda Mijozni dasturiy vositada ro'yxatga olinishi bekor qilinadi va uning ushbu dasturiy vositadan foydalanishi taqiqlanadi.

2.34 Bank tomonidan mijozning noqonuniy (shubhali) operatsiyalari aniqlanib bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijozdan yozma tushuntirish so'ralganda Mijoz tegishli ma'lumot va hujjatlarni taqdim qiladi.

### **III. XIZMATLARGA HAQ TO'LASH TARTIBI**

3.1 Mijoz Bangga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha xizmat haqlarini Bank Tariflarda belgilangan miqdorda hisobvaraqlaridan birinchi navbatda va akseptsiz tartibda undirib olinadi.

3.2 Ko'rsatilgan xizmatlar uchun xizmat haqi, agar hisobvaraqlar shartnomasida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, xizmat ko'rsatilgan kuni undirib olinishi yoki xizmat haqi har oyning oxirida undirib olinishi mumkin.

3.3 Mijozning milliy valyutadagi mablag'lari yetarli bo'lmagan hollarda, Bank Mijozning mavjud valyuta mablag'larini undiruv amalga oshirilayotgan kundagi Markaziy bankning kursi bo'yicha konvertatsiya qilish orqali xizmat haqlarini undirib olishi mumkin.

3.4 Mazkur shartnomani bajarish bo'yicha yuzaga kelgan barcha xarajatlar Mijoz tomonidan to'lanadi.

3.5 ERI kaliti yo'qotilgan taqdirda Mijoz Bank tomonidan belgilangan tariflarga ko'ra komissiya xarajatlarini to'lashi lozim.

#### **IV. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI**

4.1 Bank Mijozga tegishli bo'lgan, Mijozning ERI kaliti uchinchi shaxslar tomonidan foydalanilishi natijasida Mijozga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

4.2 Bank Mijozning "Internet" ochiq tarmog'iga kirish usuli va joyini nazorat qilmaydi hamda uning yuzasidan javobgar emas. Mijozning ERI dan foydalanuvchi kompyuter qurilmasi va uning nosozligi uchun javobgar emas.

4.3 Mazkur shartnoma bekor qilingan taqdirda Taraflar ushbu shartnomaning amal qilishi davrida shakllantirilgan, Mijozning ERI bilan tasdiqlangan barcha elektron hujjatlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.4 Dasturiy vositadan foydalanishda Mijoz bilan Bank o'rtasida nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda Taraflar "Nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda texnik ekspertiza o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" (ushbu Shartnomaning 1-sonli Ilovasi)ga muvofiq nizolarni ko'rib chiqishda ishtirok etish, ko'rsatilgan Nizom talablarini bajarishni va nizoli vaziyatni ko'rib chiqish xulosalariga muvofiq javobgarlikni o'z zimmasiga oladilar.

4.5 Taraflar Dasturiy vositadan foydalanishi jarayonida yuzaga kelgan iqtisodiy va boshqa nizolarni hal etilishida ushbu shartnomada ishtirok etayotgan manfaatdor tarafning so'rovi bo'yicha o'zining baholari, dalil hamda xulosalarini yozma ravishda taqdim etadilar.

4.6 Taraflar majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'rganligini isbotlasa, aybsiz deb topiladi.

4.7 Aybning yo'qligi majburiyatni buzgan shaxs tomonidan isbotlanadi.

#### **V. TARAFLARNI JAVOGBARLIKDAN OZOD ETUVCHI HOLATLAR (FORS-MAJOR)**

5.1 Taraflar yengilmas kuch ta'siridagi holatlar (fors-major), ya'ni taraflar ko'ra bilolmagan yoki oldini ololmaydigan, taraflarning irodasi va xohishidan tashqari vujudga keladigan holatlar natijasida mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

5.2 Majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

5.3 Fors-major holatlar bo'lib, yong'in, suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, epidemiya, texnik fojialar, harbiy harakatlar, favqulodda vaziyatlar, davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar hisoblanadi.

5.4 Fors-major holat natijasida o'z majburiyat bajara olmayotgan taraf ikkinchi tarafni fors-major holat vujudga kelgan kundan va tugashidan 3 bank kuni ichida, fors-major holatlar vujud kelganligi, davom etishi taxmin qilinayotgan muddat, tugash muddati haqida yozma ogohlantiradi.

5.5 Yengib bo'lmaydigan kuchlar holatlariga Taraflar ta'sir o'tkaza olmaydigan va vujudga kelganligi uchun javobgar bo'lmaydigan hodisalar, masalan, zilzila, suv toshqini, yong'in, shuningdek mazkur shartnoma bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi ish tashlash, hukumat qarorlari yoki davlat organlarining farmoyishlari, har qanday tUSDagi harbiy harakatlar kiradi.

5.6 Tabiiy ofatlar, yong'inlar, halokatlar, elektr energiyasi tarmog'ining o'chirib qo'yilishi, aloqa liniyasining shikastlanishi, ommaviy tartibbuzarliklar, ish tashlashlar, harbiy harakatlar, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari, taraflarning biri uchun bajarilishi majburiy bo'lgan, shartnomada ko'rsatilgan faoliyat turlarini bevosita yoki bilvosita taqiqlovchi yoki taraflarning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlariga to'sqinlik qiluvchi qonun hujjatlarining qabul qilinishi.

5.7 Bank texnik yoxud kompyuter dasturlarini qo'llash munosabati yoki bank va banklararo elektron tizimining ishdan chiqishi hamda nosozligi tufayli o'z majburiyatlarini bajarolmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

5.8 Yengib bo'lmaydigan kuchlar holatlarini vaj qilib keltiradigan Taraf, bunday holatlar vujudga kelgani to'g'risida boshqa Tarafni yozma ravishda darhol (7 ish kuni ichida) xabardor qiladi.

5.9 Taraflarning talabi bo'yicha tegishli organ tomonidan berilgan fors-major holat yuz berganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

## **VI. MIJOZGA XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI**

6.1 Ulanishni o'rnatish va elektron hujjatlarni qabul qilish-uzatish jarayonida faol Taraf bo'lib Mijoz hisoblanadi.

6.2 Dasturiy vositadan foydalangan holda Bangga hujjatlarni yetkazishning imkoni bo'lmaganda hujjatlar Mijozdan asl nusxa ko'rinishida qabul qilinadi.

6.3 Dasturiy vosita bo'yicha Bank tomondan qabul qilingan, Mijozning zarur miqdordagi ERI bilan imzolangan elektron (to'lov) hujjatlar Bangga yetkazib berilgan deb hisoblanadi va bu hujjatlar "yetkazib berilgan" maqomini oladi.

6.4 Dasturiy vosita bo'yicha yetkazib berilgan elektron hujjatlar Bankda faqat operatsion kun mobaynida keyingi avtomatik tekshiruvdan o'tkaziladi.

6.5 Tekshiruv natijalariga ko'ra Mijozga hujjatni ishlovga qabul qilish yoki brakka chiqarish to'g'risida yakuniy qaror taqdim etiladi.

6.6 "To'lov topshiriqnomasi" elektron hujjatni olishda Bank Mijozning ERI haqiqiylikini, hujjat rekvizitlarining to'g'ri to'ldirilganligini, Mijozning hisob raqamida debet saldo yuzaga kelish ehtimolini tekshiradi.

6.7 Agar hujjat brakka chiqarilsa u Bank tomonidan qabul qilinmaydi va bu haqda Mijoz hujjatining maqomida sababini ko'rsatgan holda "qaytarilgan" (brakka chiqarilgan) belgisi qo'yiladi.

6.8 Bankda to'liq avtomatik tekshiruvdan o'tgan va ishlovga qabul qilingan elektron hujjatlar "ishlovda" maqomiga ega bo'ladi.

6.9 Bank operatsionisti tomonidan ijro qabul qilingan elektron hujjat "ijroda" maqomiga o'tadi.

6.10 Hujjatni ijro uchun qabul qilish to'g'risidagi yakuniy qaror Bank operatsionisti tomonidan qabul qilinadi.

6.11 Bank tomonidan ijro etilgan va Mijozning ko'chirmasi bo'yicha amalga oshirilgan to'lov hujjati "Ijro etilgan" maqomini oladi.

## **VII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH ASOSLARI VA TARTIBI**

7.1 Bank ushbu shartnomaning 8-bandida belgilangan "Internet-banking" tizimida Mijozga xizmat ko'rsatish tartibiga, Mijozni aloqa vositalari, shu jumladan <http://www.aloqabank.uz> manzili bo'yicha Bankning saytida e'lon va ma'lumotlarni joylashtirish orqali oldindan, biron o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida o'n kun oldin,

xabardor qilgan holda bir taraflama o'zgartirish huquqiga ega.

7.2 Bank xizmatlari uchun to'lovlar kechiktirilgan taqdirda shartnoma Bank tomonidan bir taraflama bekor qilinishi mumkin.

7.3 Mijoz tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida Bank o'z xohishiga ko'ra shartnoma shartini o'zgartirish yoki bekor qilishni talab qilish mumkin.

7.4 Bank tariflari o'zgarganda Bank o'z xohishiga ko'ra shartnoma shartini o'zgartirish yoki bekor qilishni talab qilish mumkin.

7.5 Mijoz shartnoma obyektini Bankning ruxsatisiz uchinchi shaxslarga foydalanishiga bergan taqdirda, Bank o'z xohishiga ko'ra shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi hamda yetkazilgan zararni hamda neustoykani to'liq to'lashni talab qilishi mumkin.

7.6 Mazkur Shartnoma bo'yicha taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajarganlaridan so'ng bekor bo'lgan hisoblanadi.

7.7 Mazkur shartnomani bekor qilmoqchi yoki o'zgartirmoqchi bo'lgan taraf ikkinchi tarafga shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish shartlarini ko'rsatgan holda shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risida shartlar loyihasini yuboradi.

7.8 Mazkur shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risida shartlari loyihasini olgan taraf, olgan kunidan boshlab 15 kun ichida ushbu loyihani ko'rib chiqib, ikkinchi tarafga javob xati yuboradi.

7.9 Mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi shartnoma loyihasini olgan taraf ikkinchi tarafga loyiha yuzasidan javob xati yubormasa, shartnoma bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hisoblanadi.

7.10 Shartnoma shartlari o'zgartirilgan bo'lsa, shartnoma o'zgartirilgunicha Mijoz tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatlar to'liq bajarishdan ozod qilmaydi.

7.11 Bank tomonidan Mijozning shubhali (noqonuniy) operatsiyalari aniqlangan taqdirda Bank ushbu shartnomani yoki hisobvaraqlar shartnomasini bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

## **VIII. SHARTNOMA BO'YICHA XIZMAT KO'RSATISHNI TO'XTATISH ASOSLARI VA TARTIBI**

8.1 Mijoz taraflar o'rtasida tuzilgan hisobvaraqlar shartnomasi yoki mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda Bank hisobvaraqlar shartnomasi yoki mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib qo'yishi mumkin.

8.2 Mijoz shartnoma obyektidan mazkur shartnoma shartlariga muvofiq foydalanmaganida Bank Mijozning elektron (to'lov) hujjatlarini qabul qilmasligi, qabul qilingan elektron (to'lov) hujjatlarini ijro qilmasligi mumkin.

8.3 Mijoz mazkur shartnoma shartlariga rioya qilmagan holda yoki qonun hujjatlariga xilof ravishda shartnoma obyektidan foydalangan holda mazkur shartnoma va bank hisobvaraqlar shartnomasi bo'yicha xizmatlarni ko'rsatishni kamida uch kungacha to'xtatib qo'yishi mumkin.

8.4 Mijoz tomonidan majburiyatlari bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi bo'yicha yozma tushuntirish berilmaganicha va uning majburiyatlari to'liq bajarilmaganicha to'xtab turilishi mumkin.

8.5 So'ralgan elektron (to'lov) hujjatlari 5 (besh) bank ish kuni mobaynida taqdim etilmagan taqdirda Bank ushbu hujjatlar taqdim etilgunga qadar Mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turishi mumkin.



8.6 Mijoz tomonidan yuborilgan elektron (to'lov) hujjatining mazmuniga ko'ra uni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari yoki bank hisobvarag'i shartnomasiga muvofiq qo'shimcha hujjatlar talab etilgan taqdirda va ularni elektron shaklda yetkazish mumkin bo'lmagan hollarda Bank bu elektron (to'lov) hujjat ijrosini to'xtatib turishi yoki ijro qilmasligi mumkin.

8.7 Bank Mijozni o'n kun oldin ogohlantirgan holda belgilangan Bank tarifini bir tarafdama o'zgartirishi mumkin.

8.8 Mijoz o'z xohishiga ko'ra ERI kalitini amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish va Bangga ushbu Shartnomaning 2-sonli llovasiga muvofiq o'z ERI kalitini blokirovka qilish to'g'risida yozma xabar yuborishi mumkin.

8.9 Bank xizmatlari uchun to'lovlar kechiktirilgan taqdirda Bank Mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatib qo'yishi mumkin.

8.10 Mazkur shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatishni to'xtatish dasturiy vositani o'chirish, ERI kalitini blokirovka qilishi va boshqa texnik usullar bilan dasturiy vositadan foydalanishni cheklash yoki Mijozning elektron (to'lov) hujjatlarini qabul qilmasligi, qabul qilingan elektron (to'lov) hujjatlarini ijro qilmaslik usullari orqali amalga oshirilishi mumkin.

## **IX. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

9.1 Mazkur shartnoma har ikki taraf uni imzolagan vaqtdan e'tiboran kuchga kiradi va nomuayyan muddat davomida amal qiladi.

9.2 Tarafdardan biri ikkinchi tarafni kamida 30 kundan oldin yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tarafdama shartnomani bekor qilishga haqlidir, mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

9.3 Bank xizmatlariga to'lovlar yuzasidan majburiyatlar Mijoz tomonidan buzilgan taqdirda Bank Mijozni 10 (o'n) kalendar kun oldin xabardor qilgan holda shartnomani bir tarafdama bekor qilishga haqli.

9.4 Mijoz bilan tuzilgan bank hisobvarag'i shartnomasining bekor qilinishi va hisob raqamining yopilishi mazkur shartnomani bekor qilishga asos bo'ladi.

## **X. YAKUNIY QOIDALAR**

10.1 Mazkur shartnoma yuzasidan nizolar ushbu shartnomaga 1-sonli llovaga muvofiq o'zaro manfaatlar hisobga olingan holda muzokaralar yo'li orqali hal qilinadi, kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal etiladi.

10.2 Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar tarafdar tomonidan oddiy yozma ravishda tuzilgach, imzolanib va muhr bilan tasdiqlangach kuchga kiradi, qonun hujjatlari hamda ushbu shartnomada Bankning shartnomaga Mijozning rozilgisiz o'zgartirish kiritish huquqi ko'rsatilgan hollar bundan mustasno. Mazkur shartnomaning barcha llovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

10.3 Shartnomaning ayrim shartlari, amaldagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar tufayli ularga amal qilinishi mumkin bo'lmagan holatga kelganda, tarafdarning talabi bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

10.4 Tarafdar o'z yuridik manzillari o'zgargan taqdirda uch kunlik muddat ichida bir-birini xabardor qilishi lozim.

“Internet-banking” dasturiy vositasidan foydalangan holda  
hisobvaraqlarga xizmat ko‘rsatilishi yuzasidan  
SHARTNOMAgA 1-ilova

**Nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda  
texnik ekspertiza o‘tkazish tartibi to‘g‘risida  
NIZOM**

1. Mazkur Nizomda nizoli vaziyat sifatida Mijozning Bangga nisbatan elektron hujjat va uning Elektron Raqamli Imzosi haqqoniyligi bo‘yicha e‘tirozlari mavjudligi tushuniladi.

2. Mijoz Bangga o‘z hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyani amalga oshirishda asos bo‘lib xizmat qilgan Elektron Raqamli Imzoga ega hujjat bo‘yicha e‘tirozini o‘z ichiga olgan arizani Bangga taqdim etadi.

3. Bank Mijozning arizasi berilgan kundan e‘tiboran besh ish kundan ortiq bo‘lmagan muddat mobaynida arizani ko‘rib chiqish uchun “Nizolarni hal etish komissiyasi”ni tuzishi shart. Komissiya tarkibiga Mijoz va Bank vakillari hamda zaruratga ko‘ra mustaqil ekspertlar kiritiladi. Komissiya a‘zolarini tanlash barcha ishtirokchilar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

4. Nizolarni hal etish komissiyasi tomonidan nizoli vaziyatni ko‘rib chiqish natijasi bo‘lib ilova qilingan hujjat bo‘yicha Mijozning Elektron Raqamli Imzosi haqiqiyligi yuzasidan javobgar tomonni aniqlash hisoblanadi.

5. Nizolarni hal etish komissiyasi 5 (besh) ish kundan ortiq bo‘lmagan muddat mobaynida arizani ko‘rib chiqilishini amalga oshiradi.

6. Nizolarni hal etish komissiyasi Mijozning e‘tiroziga asos bo‘lgan Elektron Raqamli Imzo bilan tasdiqlangan hujjat bo‘yicha Bank tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarni texnik ekspertizadan o‘tkazadi.

7. Nizolarni hal etish komissiyasi Mijozning Elektron Raqamli Imzo , uning amal qilish muddatlari hamda uni Mijozga tegishli ekanligi yuzasidan texnik ekspertiza o‘tkazadi.

8. Nizolarni hal etish komissiyasi elektron hujjatdagi Mijozning Elektron Raqamli Imzosi haqiqiyligini texnik ekspertizadan o‘tkazadi.

9. Texnik ekspertiza taqdim etgan ma‘lumotlar asosida Nizolarni hal etish komissiyasi dalolatnoma tuzadi.

10. Quyidagi vaziyatlardan biri yuzaga kelgan taqdirda Bank Mijoz oldida javobgar hisoblanadi:

a) Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyani bajarilishida Bank uchun asos bo‘lib xizmat qilgan, Mijoz tomonidan berilgan elektron hujjatni Bank taqdim etmaganda;

b) Mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyani bajarilishida Bank uchun asos bo‘lib xizmat qilgan elektron hujjatda Mijozning Elektron Raqamli Imzosi haqiqiy bo‘lib chiqmaganda;

c) Mijoz Bankning mansabdor shaxsi tomonidan imzolangan, Bank tomonidan bildirishnoma qabul qilingan vaqt ko‘rsatilgan va bank muhri tushirilgan Mijozning maxfiy hamda unga mos Elektron Raqamli Imzo kalitlarining amal qilishini tugatish to‘g‘risida Bildirish qog‘ozi taqdim etilganda; (ushbu Shartnomaning 3-sonli ilovasi)

d) Mijozning Elektron Raqamli Imzo kaliti Mijozga tegishli ekanligi tasdiqlangan, Mijozning Elektron Raqamli Imzosi haqiqiyligi Nizolarni hal etish komissiyasi tomonidan e‘tirof etilgan elektron hujjat Bank tomonidan taqdim etilgan taqdirda Bank Mijozning hisobvarag‘idan bajarilgan operatsiyalar yuzasidan Mijoz oldida javobgar bo‘lmaydi.

Internet-banking” dasturiy vositasidan foydalangan holda  
hisobvaraqlarga xizmat ko’rsatilishi yuzasidan  
SHARTNOMAgA 2-ilova

### ARIZA

Sizdan “Internet-banking” dasturiy vositasi orqali masofadan xizmat ko'rsatish tizimida elektron hujjatlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida yopiq va ochiq ERI kaliti hamda ERI kaliti sertifikatini taqdim etishingizni so'rayman.

№	Yopiq ERI kaliti Egasi to'g'risida ma'lumotlar:	
1	F.I.Sh. to'liq	
2	Lavozimi	
3	Pasport seriyasi va raqami	
4	STIR	
5	Telefon	
№	Yuridik shaxs/arizachi to'g'risida ma'lumot	
1	Yuridik shaxs/arizachi nomi	
2	Joylashgan joyi (manzil):	
3	STIR / JSHSHIR	
4	Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma raqami va sanasi	
5	Email (ish)	

Yuridik shaxs/arizachi  
rahbari(ishonchli vakili) \_\_\_\_\_(imzo/muhr) \_\_\_\_\_(F.I.Sh.)

Internet-banking” dasturiy vositasidan foydalangan holda  
hisobvaraqlarga xizmat ko’rsatilishi yuzasidan  
SHARTNOMAgA 3-ilova

Elektron raqamli imzo (ERI)ni topshirish

DALOLATNOMASI

\_\_\_\_\_ tumani (shahar) “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 202\_\_y.

Biz, quyida imzo chekuvchilari, bir tomondan AT “Aloqabank” \_\_\_\_\_

HKXKM/ KXKM direktori \_\_\_\_\_, ikkinchi tomondan

Mijoz \_\_\_\_\_ raqbari

\_\_\_\_\_ tuzamiz ushbu dalolatnomani  
«Korporativ internet-banking» tizimida ishlash uchun birinchi tomon (Bank) ikkinchi tomon (Mijoz)ga elektron raqamli imzo kalitini (ERI) topshirdi va Mijoz qabul qilib oldi. Dalolatnoma rasmiylashtirilgan sanadan boshlab «Korporativ internet-banking» tizim orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo’yicha Mijoz javobgar hisoblanadi.

“BANK”		“MIJOZ”	
		(xo’jalik yurituvchi subyektning nomi)	
HKXKM/ KXKM direktori:  _____		Mijoz tomonidan:	
F.I.SH.	Imzo	F.I.SH.	Imzo
HKXKM/KXKM buxgalteri:			
F.I.SH.	Imzo		
«_____» _____ 202_ y.		«_____» _____ 202_ y.	

AT "Aloqabank"da Yuridik shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga bank hisobvaraqlarini ochish va ularga masofadan turib (distantcion) elektron bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta shartnomasiga 5-ILOVA

## **AT "ALOQABANK" MOBIL ILOVASIDAN FOYDALANISH BO'YICHA KELISHUV**

### **1. Atamalar va ta'riflar**

1.1. **Foydalanuvchi** – direktor (rahbar) yoki buxgalter (ikkinchi imzo huquqiga ega bo'lgan shaxs) yoki AT «Aloqabank»da ochilgan joriy hisobvaraqdan foydalanish vakolatiga ega bo'lgan shaxs timsolida Bank Ilovasini Qurilmaga o'rnatgan litsenziat, yuridik shaxs (Bank mijozi).

1.2. **Bank Ilovasi** – mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan «Aloqa Business» deb nomlanuvchi dastur bo'lib, ishlab chiqilishi jihatidan mutlaq huquq Bankka tegishli.

1.3. **Qurilma** – Internet tarmog'iga kirish imkoniyatiga ega bo'lib, Bank Ilovasi o'rnatilgan mobil texnik qurilma.

1.4. **Litsenziya** – Bank Ilovasidan foydalanish uchun oddiy (nomutlaq) berilmaydigan, qaytarib olinadigan bepul litsenziya.

### **2. Kelishuv predmeti**

2.1. Bank Foydalanuvchiga 1-ilovaga ko'ra taqdim etilgan ariza asosida ushbu Kelishuv doirasida va unda belgilangan usullarda Litsenziya shartlariga muvofiq Bank Ilovasidan foydalanish huquqini beradi.

2.2. Bank Ilovasidan foydalanish va uning funksional xususiyatlari, shuningdek tizim talablari to'g'risidagi ma'lumotlar Bank Ilovasidan foydalanish bo'yicha qo'llanmada keltirilgan.

2.3. Litsenziya quyidagi shartlarda beriladi:

2.3.1. Litsenziyaning amal qilish hududi - dunyoning barcha mamlakatlari;

2.3.2. Litsenziyaning amal qilish muddati — Foydalanuvchi Bank Ilovasidan foydalanishni boshlagan va Litsenziya shartlarini qabul qilgan kundan boshlab, uni Qurilmadan o'chirguniga va/yoki Qurilmaning foydalanuvchisi o'zgarguniga qadar;

2.3.3. Litsenziya Bank Ilovasidan quyidagi usullarda va quyidagi chegaralarda foydalanish huquqini beradi:

1) Bank Ilovasidan nusxa ko'chirish va Qurilma xotirasiga o'rnatish;

2) Bank Ilovasini Qurilmada namoyish etish;

3) Bank Ilovasidan Kelishuvning 3.6-bandda ko'rsatilgan bevosita funksional maqsadlarga muvofiq ravishda foydalanish.

Bank Ilovasidan foydalanish bo'yicha ushbu bandda sanab o'tilgan barcha harakatlar Foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi;

2.3.4. Foydalanuvchi quyidagi shartlarga rioya qilgan holda Bank Ilovasining cheklanmagan miqdordagi nusxalaridan foydalanishi mumkin: bitta Qurilmada bitta mobil

telefon abonent raqamiga ro'yxatdan o'tgan Bank Ilovasining bir nechta versiyalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi;

2.3.5. Bank Ilovasidan foydalanish bo'yicha ushbu Kelishuvda ko'rsatilmagan boshqa usullarni qo'llash taqiqlanadi. Jumladan, Foydalanuvchi quyidagilarga haqli emas:

1) sublitsenziyalar berish, sotish, Bank Ilovasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, foydalanish uchun va ijaraga berish, tarqatish, foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga o'tkazish yoki boshqacha tarzda berish;

2) Bank Ilovasini yoki uning qaysidir qismlarini yangilash, takomillashtirish, boshqa tillarga tarjima qilish, dekompiyatsiya qilish, dezassembliyatsiya qilish, dekodlash, emulsiyalash, yaxlitligini buzish, dastlabki kodini tiklash;

3) Bank Ilovasidan foydalangan holda ma'lumotlar yoki fayllarni ommaviy yuborishni amalga oshirish;

4) Bank Ilovasidan tijorat mahsulotlarining tarkibida, uchinchi shaxslarga tijorat mahsulotlari yoki xizmatlarini taklif qilish yoki boshqa tijorat maqsadlarida foydalanish;

5) Bank Ilovasidan uchinchi shaxslarning huquqlarini buzish, shuningdek amaldagi qonunchilikka zid bo'lgan maqsadlarda foydalanish.

### 3. Umumiy qoidalar

3.1. Bank Ilovasidan ushbu Kelishuvda bayon etilganidan farq qiladigan boshqa shartlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2. Bank Ilovasidan foydalanishni boshlashdan oldin Foydalanuvchi ushbu Kelishuv matni bilan tanishish majburiyatini oladi.

3.3. Agar Foydalanuvchi biron bir alohida qoidaga yoki umuman Kelishuvga rozi bo'lmasa, u Bank Ilovasidan har qanday usulda foydalanishni to'xtatishi shart. Foydalanuvchi Kelishuvning 6.1-bandiga muvofiq Kelishuv shartlariga roziligingizni bildirish va Bank Ilovasidan foydalanishda davom etish bilan ushbu Kelishuvning barcha shartlariga so'zsiz va to'liq rozi bo'ladi.

3.4. Kelishuvning 2.2., 3.2. va 6.1-bandlari doirasida «foydalanishni boshlash» deganda Bank Ilovasidan yoki ularning funksionalidan foydalanishga qaratilgan har qanday harakatlar tushunilishi kerak. Foydalanishning boshlanishi deganda quyidagilar ham tushuniladi, lekin ular bilangina cheklanib qolmaydi: Bank Ilovasini Qurilma xotirasida yuklab olish, yozish va saqlash.

3.5. Bank Ilovasidan foydalanish bo'yicha qo'llanma Kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi. Bank Ilovasidan foydalanish bo'yicha qo'llanma qoidalarining buzilishi Kelishuvni bekor qilishga olib keladi.

3.6. Shartnoma, ««Aloqa Business» mobil ilovasining maxfiylik siyosati»<sup>1</sup>, shuningdek Bank ilovalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanmalar bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

---

<sup>1</sup>Hujjatning mavjudligi Foydalanuvchi Qurilmasining operatsion tizimidan kelib chiqqan holda Bank tomonidan belgilanadi.

3.7. Bank Ilovasi Foydalanuvchi tomonidan AT «Aloqabank»da ochilgan o'zining hisobvaraqlaridan foydalanish va operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

3.8. Bank Ilovasini ro'yxatdan o'tkazilganda Foydalanuvchining mobil telefonining abonent raqami Bank serverlarida saqlanadi<sup>2</sup>.

3.9. Kelishuvning 6.1-bandida belgilangan tartibda ushbu Kelishuvning shartlarini qabul qilgan holda Foydalanuvchi o'z xohishiga ko'ra va o'z manfaatlarini ko'zlab Bankka quyidagi huquqlarni beradi va ularga o'z roziligini bildiradi:

3.9.1. Foydalanuvchiga pul o'tkazmalarini amalga oshirish bo'yicha qulay xizmatlarni taqdim etish maqsadida Bank Ilovasi Qurilmaning operatsion tizimi orqali Foydalanuvchining kontaktlaridan foydalanishini tasdiqlash chog'ida Foydalanuvchining telefon raqamini, shuningdek Qurilmada joylashgan Foydalanuvchining kontaktlaridagi telefon raqamlarini avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash (quyidagilarni bajarish bilan: to'plash, yozib olish, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, foydalanish, yo'q qilish) uchun;

3.9.2. Bank Ilovasida reklama va axborot takliflarini, Bankning sho'ba va hamkorlarining tovarlari, ishlari, xizmatlari bo'yicha maslahatlarni joylashtirish;

3.9.3. Foydalanuvchi Bank Ilovasida keyingi operatsiyalarni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan tegishli ma'lumotlarni rekvizitlarning tegishli maydonchalariga avtomatlashtirilgan (avtomatik) tarzda kiritish maqsadida Bank Ilovasida operatsiyalarni amalga oshirish va/yoki uning funksionalidan foydalanish chog'ida Foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda kiritiladigan va/yoki taqdim etiladigan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlardagi shaxsiy ma'lumotlarni va boshqa shaxsiy ma'lumotlarni chiqarib olish, yig'ish, to'plash, tizimlashtirish, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), saqlash, foydalanish, avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash va yo'q qilish uchun;

3.9.4. Bank Ilovasidan foydalanganda Foydalanuvchini Bank bo'linmalari va Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalari joylashgan joyi, shuningdek Foydalanuvchi uchun uning geografik joylashuvi e'tiboridan qo'shimcha ravishda foydalanishi mumkin bo'lgan boshqa xizmatlar to'g'risida xabardor qilish maqsadida Foydalanuvchi Qurilmasining geografik joylashuvi (geografik koordinatalari) (uyali aloqa operatorining tarmoq ma'lumotlari va GPS signallari asosida) va Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarning joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash, yig'ish, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), yo'q qilish, qayta ishlash (shu jumladan avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash) va ulardan foydalanish uchun.

3.10. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligi Bank Ilovasidan foydalanish muddati davomida, shuningdek Bank Ilovasidan foydalanish to'xtatilgan kundan boshlab 5 yil davomida amal qiladi.

3.11. Foydalanuvchi Bank Ilovasidan foydalanishni o'chirib qo'yish orqali ushbu rozilikni chaqirib olish huquqi va imkoniyatiga ega.

---

<sup>2</sup>Qurilmaning operatsion tizimining o'ziga xos xususiyatlariga qarab.

3.12. Foydalanuvchi «Aloqa Business»dagi tegishli sozlamalarni o'zgartirish orqali Foydalanuvchining Qurilmada joylashgan kontaktlaridan telefon raqamlarini qayta ishlashni istisno qilish imkoniyatiga ega.

3.13. Foydalanuvchining «Aloqa Business» mobil ilovasida foydalanishda bo'lgan login(lar)i bloklanib qolgan holatlarda, mazkur loginlardan qayta foydalanish uchun 2 – ilovaga muvofiq arizalar taqdim etiladi.

3.14. Bank O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi O'RBQ-547-son Qonuni talablariga muvofiq Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, shuningdek qayta ishlangan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasini ta'minlash majburiyatini oladi.

3.15. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda Bank foydalanuvchidan olingan shaxsiy ma'lumotlarni ularga ruxsatsiz yoki tasodifiy kirishdan, shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, bloklashdan, nusxalashdan, taqdim etishdan, tarqatishdan himoya qilish, shuningdek, Foydalanuvchidan olingan shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoyalash uchun zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.

#### **4. Qo'shimcha shartlar**

4.1. Agar Bank Ilovasidan foydalanish Foydalanuvchining milliy qonunchiligi tomonidan taqiqlangan faoliyat yoki maxsus ruxsatnomalar, xabarnomalar va boshqalarni talab qiladigan faoliyat deb hisoblansa, Foydalanuvchi Bank Ilovasining tegishli funksiyalaridan yoki umuman Bankning Ilovasidan foydalanishni to'xtatish majburiyatini hamda ushbu shartga rioya qilmaslik uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

4.2. Mijoz tomonidan «AloqaBusiness» orqali shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi aniqlangan taqdirda, Bank o'sha kuniyoq shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish yoki amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma ravishda tushuntirish bermaguniga qadar xizmatni vaqtincha to'xtatib turish huquqiga ega.

4.3. Agar mijoz tomonidan gumonli va shubhali operatsiyalar amalga oshirilganiga gumon bo'lsa, holat to'liq aniqlangunga qadar yoki mijoz tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi to'g'risida yozma ravishda tushuntirilgunga qadar Bank taqdim etilayotgan barcha xizmatlarni to'xtatib turishga haqlidir (mijozga xabar bermasdan).

4.4. Agar mijoz tomonidan gumonli va shubhali operatsiyalar amalga oshirilganiga gumon bo'lsa, Bank mijoz to'g'risida qo'shimcha ma'lumot talab qilishga, mijozni joylashgan joyi (pochta manzili) yoki manzili bo'yicha o'rganishga va mijozning operatsiyalarini amalga oshirish jarayonlarini tekshirishga haqlidir.

4.5. Bank operatsiyalarni gumonli va shubhali deb topgan taqdirda shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqlidir.

4.6. Gumonli va shubhali operatsiyalar belgilari aniqlanganda mijoz Bankning yozma so'rovnomasiga binoan zudlik bilan barcha ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

4.7. Foydalanuvchi ushbu bilan xabardor qilingan va quyidagilarga rozilik beradi:



4.7.1. Qurilmada qayta ishlanadigan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi bevosita Foydalanuvchi tomonidan ta'minlanadi.

4.7.2. Foydalanuvchi Internet tarmog'idan foydalangan holda shaxsiy ma'lumotlar va boshqa maxfiy ma'lumotlarni uzatish bilan bog'liq xavflarni tushunadi va qabul qiladi;

4.7.3. Bank ilovasi o'rnatilayotganda ro'yxatdan o'tgan Qurilmadagi Foydalanuvchi o'zgarganida, Qurilmada Bank ilovasini ro'yxatdan o'tkazish kerak;

4.7.4. Bank, Bank Ilovasidan foydalanish uchun limitlar va cheklovlar o'rnatishga haqli va ularni o'z xohishiga ko'ra, Foydalanuvchini oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirishi mumkin;

4.7.5. Bank, Bank Ilovasi xizmatini taqdim etish uchun tashqi kutubxonalar, QR kodlarini skanerlash va tanib olish uchun dasturlardan foydalanadi. Tashqi kutubxonalar va dasturiy ta'minotlar Foydalanuvchi tomonidan foydalaniladi va Bank tomonidan tegishli tashqi litsenziyalar shartlariga muvofiq tarqatiladi. Kutubxonalar ro'yxati va ularning litsenziyalarining nomlari, dasturiy ta'minot haqidagi ma'lumotlar Bank Ilovalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanmalarda joylashtirilgan;

4.7.6. Bank ilovasi o'zining to'liq funksionalini amalga oshirish uchun Bank ilovasida taqdim etilgan xizmatlar doirasida foto tasvirlarni olish va ulardan foydalanish shu jumladan, foydalanuvchi Bank ilovasidagi profilida foto tasvirlarni yaratish va saqlash, to'lov hujjatlari va shtrix kodlarini tanib olish va ulardan Bank ilovasida pul o'tkazmalarini amalga oshirishda foydalanish maqsadida ularning foto tasvirlarini olish uchun Qurilma kameralariga kirishi mumkin.

4.7.7. Bank hamkorlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida Bank Ilovasining zarur funksional imkoniyatlarini ta'minlash uchun hamkorlar xizmatlaridan foydalanadi;

4.7.8. 4.2.4-bandda ko'rsatilganidan tashqari barcha tashqi dasturiy ta'minot ushbu Kelishuv shartlariga muvofiq taqdim etiladi;

4.7.9. Internet tarmog'iga kirish imkoniyati mavjud bo'lgandagina Bank Ilovasidan foydalanish va ma'lumotlarni uzatish mumkin bo'ladi. Bank Ilovasining uzluksiz ishlashi uchun Foydalanuvchi o'z Qurilmasida Internetga kirishning tegishli sifatini ta'minlashi kerak.

4.8. Foydalanuvchining yoki foydalanuvchi mulkdorlari (ta'sischilari) qarori bilan vakolatli shaxslar o'zgarganda, yangi tayinlangan(saylangan) vakolatli (mansabdor) shaxslarning 3-ilovaga muvofiq yozma arizasi shaxsan taqdim etilganda foydalanishda bo'lgan ilova login va maxsus so'zlar o'zgartirib beriladi hamda tasdiqlash kodlari qayta yuborib berilishi ta'minlanadi.

## **5. Tomonlarning javobgarligi**

5.1. Bank Ilovasi «qanday bo'lsa shunday» (as is) shartlari asosida taqdim etiladi. Bank Ilovasining Foydalanuvchining aniq maqsadlari va talablariga muvofiqligi bo'yicha Bank hech qanday kafolat bermaydi va Kelishuvda aniq ko'rsatilmagan boshqa kafolatlarni ham bermaydi.

5.2. Kelishuvdan kelib chiqadigan yoki Bank Ilovasidan foydalanish yoki foydalana olmaslik (shu jumladan, ishbilarmonlik obro'sini yo'qotish, ishni to'xtatish, texnik nosozlik,

avariya yoki nosozliklar yoki har qanday tijorat yo'qotishlar, xarajat yoki yo'qotishlar, shuningdek yo'qotilgan foyda yoki asossiz boyitish natijasida kelib chiqadigan zararlar, lekin bular bilangina cheklanib qolmasdan) natijasida kelib chiqadigan har qanday turdagi bevosita, bilvosita, qasddan yoki tasodifiy zararlar, hatto bunday zarar ehtimoli Bankka ma'lum bo'lganda yoki ma'lum bo'lishi shat bo'lgan yoki bunday zarar haqida ogohlantirilgan bo'lgan taqdirda ham hech qanday shartlarda Bank Foydalanuvchi oldida javobgar bo'lmaydi.

5.3. Bank Foydalanuvchiga tegishli maxfiy ma'lumotlarining xavfsizligini va Bank Ilovasining ishlashini ta'minlashga qaratilgan barcha oqilona choralarni ko'radi va tegishli harakatlarni amalga oshiradi. Bank Bank Ilovasi uchun kafolat xizmatini ko'rsatmaydi.

5.4. Bank ilovasidan foydalangan holda ma'lumotlar Foydalanuvchi tomonidan uchinchi shaxslarga uzatilishi, shuningdek, Qurilmaga ruxsatsiz kirilishi yoki Qurilmadagi virusli yoxud zararli dasturiy ta'minot tufayli Bank Ilovasidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslar tomonidan qo'lga kiritilishi uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

5.5. Foydalanuvchi tomonidan login va maxfiy so'zni uchinchi shaxsga berilishi uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

5.6. Bank Ilovasidan foydalanish va Bank xizmatlarini ko'rsatish bankka bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli imkonsiz bo'lgan taqdirda Bank javobgar bo'lmaydi.

5.6.1. Foydalanuvchining login va maxfiy so'zga, shuningdek, hujjatlarni imzolash uchun SMS-kodga ega bo'lgan mas'ul shaxsining tegishli vakolati qonunchilikda ko'zda tutilgan asoslarga bekor qilinganligi munosabati bilan ushbu shaxsga taqdim etilgan login va maxfiy so'z, shuningdek, hujjatlarni imzolash uchun SMS-kodni bekor qilish/boshqa mas'ul shaxsga login va maxfiy so'z, shuningdek, hujjatlarni imzolash uchun SMS-kodni joriy qilish yuzasidan Bankka 3-ilovaga asosan yozma ariza taqdim etilmaganligi uchun Bank javobgar bo'lmaydi, garchi bu holat Foydalanuvchi tomonida yo'qotishlariga olib kelgan bo'lsa ham.

5.7. Bank Ilovasini cheklangan rejimda taqdim etish (shu jumladan tashqi tashkilotlari tomonidan Bankka xizmatlar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan xizmatlarni taqdim eta olmaganligi sababli), istalgan vaqtda, o'z xohishiga ko'ra, Bank Ilovasi ichidagi muayyan funksiyalarni o'chirib qo'yish yoki Bank Ilovasidan foydalanish imkoniyatini to'liq bekor qilish huquqini Bank o'zida saqlab qoladi.

5.8. Kelishuv Foydalanuvchiga intellektual mulk obyektlaridan, shu jumladan Bank yoki uning hamkorlarining tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilaridan foydalanish huquqini bermaydi, ushbu Kelishuvda nazarda tutilgan huquqlar bundan mustasno.

5.9. Foydalanuvchi Kelishuv bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, shuningdek, Litsenziya shartlarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

5.10. Foydalanuvchi tomonidan ushbu Kelishuv shartlarining har qanday ko'rinishda buzilishi Litsenziyaning bekor qilinishiga olib keladi.

5.11. Litsenziyaning amal qilish muddati tugagandan so'ng Bank Ilovasidan foydalanilgan taqdirda Foydalanuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

## 6. Yakuniy qoidalar

6.1. Foydalanuvchi tomonidan Bank Ilovasidan foydalanishning amalda boshlanishi Foydalanuvchining Kelishuv shartlariga qo'shilganligini tasdiqlaydi.

6.2. Foydalanuvchiga Bank Ilovasi bo'yicha login va parol 4-ilovaga asosan taqdim etiladi.

6.3. Har safar Bank Ilovasidan foydalanganda Foydalanuvchi Bank Ilovasidan foydalanish vaqtida amalda bo'lgan tahrirdagi Kelishuv shartlariga o'z roziligini bildiradi.

6.4. Kelishuv Bank Ilovasining keyingi barcha yangilanishlari/yangi versiyalariga nisbatan qo'llaniladi. Agar Bank ilovasini yangilash/yangi versiyasini o'rnatish uchun boshqa litsenziya Kelishuvi amalda bo'lmasa, Foydalanuvchi Bank Ilovasini yangilashga/yangi versiyasini o'rnatishga o'z roziligini bergan holda, Bank Ilovasining tegishli yangilanishlari/yangi versiyalari uchun Kelishuv shartlarini qabul qilgan hisoblanadi.

6.5. Kelishuv Bank tomonidan bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi mumkin. Kelishuv shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida Foydalanuvchi uchun xabarnoma yangi tahrirdagi Bank Ilovasida va/yoki Bankning rasmiy saytida joylashtiriladi.

6.6. Ko'rsatilgan o'zgartirishlar, agar tegishli nashrda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ular e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.7. Bank istalgan vaqtda istalgan Foydalanuvchidan ushbu Litsenziyani chaqirib olishga haqlidir.

6.8. Bank ushbu bilan Bank Ilovasiga bo'lgan barcha mutlaq huquqlarning yagona egasi ekanligini va amaldagi qonunchilikka muvofiq ularni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqiga ega ekanligini e'lon qiladi.

6.9. Bank ushbu bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi Bank, Foydalanuvchi yoki Foydalanuvchi qurilmasining joylashgan joyidan qat'iy nazar, Foydalanuvchi va Bankning Kelishuv bo'yicha huquq va majburiyatlariga nisbatan qo'llanilishi kerak ekanligini bayon etadi.

6.10. Kelishuvni bajarish, bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq barcha nizolar, kelishmovchiliklar va da'volarni Foydalanuvchi va Bank majburiy talabnoma yuborish tartibiga rioya qilgan holda muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intiladilar.

6.11. Biroq yuzaga kelgan nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishning iloji bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bank joylashgan joyda sud tartibida hal qilinadi, sud ishlarini yuritish tili o'zbek tilida.

6.12. Kelishuv bekor qilingan yoki Litsenziyaning amal qilish muddati tugagan taqdirda, Foydalanuvchi Bank ilovasidan har qanday foydalanishni zudlik bilan to'xtatishi va uni barcha Qurilmalar xotirasidan o'chirishi shart.

AT «Aloqabank» mobil ilovasidan  
foydalanish bo'yicha KELISHUVga 1-ilova

## ARIZA

\_\_\_\_\_

“**tashkilot nomi**” «**ALOQA BUSINESS**» dasturini \_\_\_\_\_  
hisob raqamiga ulab berishga ruxsat berishingizni so'raymiz.

Telefon: +998 ( \_\_ ) \_\_\_\_\_

Dasturdan foydalanuvchi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

F.I.Sh. rahbar

\_\_\_\_\_

imzo

M.O'.

AT «Aloqabank» mobil ilovasidan  
foydalanish bo'yicha KELISHUVga 2-ilova

## **A R I Z A**

\_\_\_\_\_ (STIR: \_\_\_\_\_) Sizdan, Axborot tizimi orqali bank xizmalaridan foydalanish uchun ushbu \_\_\_\_\_ (STIR (JSHSHIR): \_\_\_\_\_) Sizdan, korxonamizga o'rnatilgan "Aloqa Business" mobil ilovasiga berilgan login blokdan ochib berishda amaliy yordam berishingizni so'rayman.

Login: \_\_\_\_\_

Telefon raqam: \_\_\_\_\_

Direktor

\_\_\_\_\_  
(Imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

AT «Aloqabank» mobil ilovasidan  
foydalanish bo'yicha KELISHUVga 3-ilova

## ARIZA

\_\_\_\_\_ (STIR: \_\_\_\_\_) Sizdan,  
korxonamizga o'rnatilgan "Aloqa Business" mobil ilovasiga biriktirilgan telefon  
raqamni \_\_\_\_\_ o'rniga \_\_\_\_\_ telefon raqamga  
o'zgartirib, holatini aktiv qilib hamda to'lovlar uchun tasdiqlash (PIN) kodini  
qayta jo'natib berishda amaliy yordam berishingizni so'raydi.

"Aloqa Business" mobil ilovasi orqali o'tkazilgan o'tkazmalar va  
ma'lumotlar javobgarligini o'z zimmamizga olamiz.

Login: \_\_\_\_\_

Telefon raqam: \_\_\_\_\_

Direktor

\_\_\_\_\_  
(Imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

AT «Aloqabank» mobil ilovasidan  
foydalanish bo'yicha KELISHUVga 4-ilova

**ALOQA BUSINESS dasturini  
topshirish-qabul qilish  
DALOLATNOMASI**

Toshkent shahri

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 202\_\_ yil

**Topshiruvchi** AT “Aloqabank” HKXKM vakili:

\_\_\_\_\_ tomondan,

**Qabul qiluvchi vakili:** \_\_\_\_\_ tomondan,  
ushbu dalolatnomani quyidagilar haqida tuzib imzoladilar:

Login va parol maxsus konvertida saqlangan shaklda Topshiruvchi vakillari topshirildi, Qabul qilib oluvchi vakillari qabul qilib oldi.

<b>Topshirdilar:</b>	<b>Qabul qildilar:</b>
	“ _____ ”
	Tashkilot:
F.I.Sh.	F.I.Sh.
Imzo: _____ M.O'.	Imzo: _____ M.O'.